جدید

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

2024-yil 7-iyun
№ 24(24)
www.jadid-media.uz

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

OYDINLAR

KO‘NGILCHANLIK



Mirtemir domla o‘ta ko‘ngilchan inson edilar. Bir kuni nashriyotning uzun yo‘lagidan bir odam domlaga qarab: “E, bormisiz, sizni ham ko‘radigan kun bor ekan-ku”, deya quchoq ochib kela boshladi. Domla u bilan xush kayfiyatda qadrdonlarcha quchoqlashib ko‘rishdilar. Obdon chaqchaqlashib bo‘lishgach, yana quchoqlashib xayrlashdilar.

(4-sahifada o‘qing).

YOSH DO‘STLARIMGA

Sizga berilgan imkonni asrang!



Oqil SALIMOV,
akademik



Inson yoshi ulg‘aygan sari boshidan o‘tgan kunlar, voqea-hodisalarga xayolan bir-bir nazar tashlaydi. Biz kabi mo‘ysafidlar mustabid sovet tuzumining barcha ko‘rgiliklarini ko‘rdik, o‘sha adolatsiz muhitda yashadik, ishladik. O‘tgan kunlarimiz, tabiiyki, ortga qaytmaydi, o‘tmishga evriladi. Biz esa undan taqqoslar asosida mantiqiy xulosa chiqaramiz, kelajagimiz uchun fikr yuritamiz.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz debochasiga shaxsan Prezidentimizning taklifiga ko‘ra, uch ming yillik qadimiy tariximiz, beqiyos boy madaniyatimiz haqida fuqarolarda faxr-iftixor uyg‘otuvchi fikrlar kiritildi. Boisi, navqiron avlod vakillari xalqimizning qadim shukuhli o‘tmishidan g‘ururlansin, dunyo tamaddoniga munosib hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimizdan ma’naviy kuch olsin. Ma’lumki, Shavkat Mirziyoyev davlat boshqaruviga kelgach, avvalo ta’lim va tarbiya masalasiga jiddiy e’tibor qaratdi. Bosh qomusimizdagi zarur tahrirlar ham aynan ana shu ta’limdan tarbiyani ajratib bo‘lmaydi, degan aqidaga hamohangdir. Ta’lim ustuvor bo‘lishida tarixiy xotira bilan bog‘liq milliy g‘ururning ham ahamiyati katta hisoblanadi.

(Davomi 2-sahifada).

TASHRIFDAN SO‘NG...

MA’NAVIYAT *tantanasi*, ADOLAT *g‘alabasi*

Bundan ikki yil burun “Buxoronoma” gazetasida taniqli tarixchi olim Sulaymon Inoyatovning jadid ma’rifatparvari Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev qismati haqidagi maqolasi e’lon qilingan, undagi bir lavha tahririyat xodimlari va ko‘p sonli muxlislar qalbini o‘rtagan edi...

Maqolada Usmonxo‘janing farzandi, hozirda xorijda yashab, ilm-fan bilan shug‘ullanayotgan professor Temur Xo‘jao‘g‘lining Buxoroga tashrifi chog‘ida ota uyida (o‘sha paytlarda bu uy mehmonxonaga aylantirilgan edi) bir kecha tunash uchun pul to‘lashga rozi bo‘lgani, ota uyida o‘tkazgan tuni uning qalbidagi iztiroblarni alangalatgani, imkoni bo‘lsa-yu, ota mulkini xarid qilib, xalqqa topshirishga rozi bo‘lgani haqida hikoya qilingan edi...

Bugun biz bunday xabarlar tez tarqaladigan, bahs-munozara uyg‘otadigan bir davrda yashayapmiz. Tarixiy xotirani tiklash bilan bog‘liq bu kabi masalalar doimo davlat rahbarining e’tiborida bo‘layotgani, tarixiy adolatni tiklash yo‘lidagi sa’y-harakat va tashabbuslar tezkorlik bilan qo‘llab-quvvatlanayotgani esa xalqimizning chinakam baxti, omadidir.

Darvoqe, Prezidentimiz tomonidan jadid ma’rifatparvarlari, jumladan, Xo‘jayevlar sulolasining sha’nini tiklash, ularning hurmatini joyiga qo‘yish bilan bog‘liq tashabbuslar u kishi lavozimga kirishgan ilk yillaridayoq ilgari surilgan edi. Poytaxtimizdagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyining joylardagi filiallari sifatida har bir viloyatda shu nomdagi muzey tashkil etilgani ana shunday tashabbuslar samarasi bo‘ldi.

(Davomi 3-sahifada).

TARIX VA TAQDIR



Avloniyning evarasi

O‘zbekiston xalq artisti, O‘zbek Milliy akademik drama teatrining yetakchi aktrisasi Gavhar Zokirova bilan suhbatlashar ekanman, tariximizning ochilmagan qirralari ko‘pligiga yana bir bor amin bo‘ldim. Gavhar opa o‘zining katta bobosi, atoqli ma’rifatparvar, o‘zbek teatrining asoschilaridan biri Abdulla Avloniy haqida bilganlarini katta hayajon bilan so‘zladi. Yonib turgan ko‘zlari, samimiy nigohlari, to‘lqinli ovozi uning bobosi va u qoldirgan boy meros bilan qanchalik faxrlanishini namoyon etib turardi. Suhbatdoshimning hayajoni menga ham yuqdi. Gavhar opaning aytganlarini xuddi o‘zi gapirib berganday qog‘ozga tushirishga harakat qildim.

(Davomi 7-sahifada).

BUGUNNING GAPI

Inson qadrini yuksaltirish yo‘lidagi izlanishlar

YER ELNI BOQQAN, BUNDAN KEYIN-CHI?

Xalqimizning “Yerning umri o‘tmasin, uvol-savobi bor” degan naqlini ko‘p eshitganmiz. Bugun ushbu naql davlat siyosatining ustuvor vazifasiga aylandi. Mamlakatimizda oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish bo‘yicha, ayniqsa, tomorqa va qishloq xo‘jaligi ekin maydonlaridan oqilona foydalanishning intensiv texnologiyalari keng joriy etilmoqda. Jumladan, qishloq joylarda bu amaliyot subsidiyalar asosida samarali tatbiq etib kelinmoqda.


Bu borada hukumat tomonidan mahallalar kesimida dasturlar qabul qilindi. Unga ko‘ra, aholining kam daromadli qatlamiga ajratilgan sarmoyalar hisobidan nol qiymatda issiqxonalar qurib berilmoqda. Mabodo o‘ziga to‘q xonadonlarda bo‘sh turgan yerga oziq-ovqat mahsulotlari ekilmagan bo‘lsa, o‘sha xonadon egasiga soliq qonunchiligi asosida choralar ko‘rilmoqda. Maqsad aholi xonadonlaridagi bo‘sh turgan tomorqadan samarali foydalanish, unga poliz va oziq-ovqat mahsulotlari olinadigan ekinlarni ekib, hududlarda dehqon bozorlarining narx-navosini mo‘tadil saqlashdan iborat.

Rostdan ham bir qishloqda, deylik, mingta xonadon bor. Boringki, ushbu oilalarning 95 foizi tomorqasidan unumli foydalansin, masalan: kundalik iste’mol uchun kartoshka, sabzi, sholg‘om, piyoz, qovoq va boshqa turdagi poliz ekinlarini o‘z qo‘li bilan yetishtirib, ro‘zg‘ori uchun g‘amlab iqtisodini yuritishi foydadan xoli emas.

(Davomi 3-sahifada).

MUNOSABAT

Badiiy adabiyotning eng ulkan sohalaridan biri, shubhasiz, tarjima san’atidir. Garchand tarjima tarixi olis davrlarga borib taqalsa-da, bugun o‘zaro yaqin va ayni damda turli til oilasiga mansub lahjalardan tarjima qilish an’anasi davom etmoqda. Dunyodagi eng go‘zal, e’tiborli, barchaning qalbidan birdek o‘rin ola biladigan asarlar tarjimasi bilan tillar tabiatini chuqur biladigan mutaxassis – tarjimonlar shug‘ullanadi.



Tarjima – dillar payvandi

Tarjimon – bu yuksak madaniyatli, badiiyatni chuqur his etadigan ziyoli. Uning mashaqqatli mehnati tufayli zohiran begona ko‘ringan ellar ellarga, dillar dillarga payvand bo‘ladi. Tarjimonning xizmati ortidan turli millatga mansub odamlar bir tilda – badiiy adabiyot tilida suhbat quradilar. Globallashuv zamoni bo‘lgan hozirgi kunimizda jahon ahlining dunyoqarashi, adabiy didi, mentaliteti, urf-udumlari va qadriyatlarini bilish uchun, albatta, ularning adabiy merosidan boxabar bo‘lmoq lozim. Shu e’tibordan Prezidentimiz tomonidan yaqinda imzolangan “Badiiy tarjima sohasida Muhammad Rizo Ogahiy nomidagi xalqaro mukofotni ta’sis etish to‘g‘risida”gi qaror mamlakatimizda tarjima adabiyotining yuksalishida bevosita qanot bo‘ladi.

Prezidentimiz olib borayotgan adabiy siyosat alaloqibat xalqlar o‘rtasidagi do‘stlikni, davlatlararo hamjihatlikni mustahkamlashga qaratilgani hammamizga kunday ravshan. Bu tarixiy qaror tufayli o‘zga xalqlar va davlatlar o‘zbek xalqining madaniy-ma’rifiy merosidan bahra olib, qadimiy va boy adabiyotimizning zabardast siymolari hamda umrboqiy asarlari vositasida Yangi O‘zbekistonning ma’naviy qiyofasini to‘laqonli tasavvur etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bu xalqaro mukofotning mumtoz shoirimiz Ogahiy nomi bilan atalishi o‘z tarixiy asosiga ega. Zero, Muhammad Rizo Ogahiy Mirxondning “Ravzat us-safo”, Vosifiyning “Badoye’ ul-vaqoye’”, Sa’diyning “Guliston”, Nizomiyning “Haft paykar” va boshqa ko‘plab tarixiy-badiiy asarlarni forschadan o‘zbek tiliga katta mahorat bilan tarjima qilgan.

(Davomi 5-sahifada).

Sizga berilgan imkonni asrang!

Boshlanishi 1-sahifada.

Sovet mafkurasi talabiga ko‘ra barcha mustamlaka xalqlar qatori bizning tariximiz ham kamsitilib, daho shaxslarimiz yerga urilib, noto‘g‘ri talqinda o‘qitib, o‘rgatilgan. Imom Buxoriy, Abu Iso Termiziy, Abu Muin Nasafiy, Dorimiy Samarqandiy kabi buyuk muhaddislarimiz, Jorulloh Zamaxshariy, Abu Mansur Moturidiy, Najmiddin Kubro, Abdulxoliq G‘ijduvoniy, Bahouddin Naqshband singari ulug‘ mufassir-mutasavviflarimizning nomi va merosi qatag‘on qilinishini dahriy tuzum talabi deb tushunish mumkindir, ehtimol. Ammo Ahmad Farg‘oniy, Muhammad Xorazmiy, Hakim Termiziy singari dunyoviy ilm-fanlar ravnaqiga beqiyos hissa qo‘shgan ulug‘ amaliyotchi olimlar, betimsol siymolarning ham imkon qadar el nazaridan panada tutilganini qanday izohlash mumkin?

Demak, millatni uyg‘otishi, o‘zligini eslatishi mumkin bo‘lgan har qanday shaxs va asarlar mustabid tuzum rahnamolariga ulkan xavf bo‘lib ko‘ringan.

Shuningdek, maktab va oliy o‘quv yurtlarida majburiy o‘qib-o‘rganganimiz tarix kitoblarining o‘ziga xos “yashirin sahifalari” ham bor edi. Ularni varaqlash, o‘zimiz yashayotgan davr haqiqatidan xabardor bo‘lish mumkin emas edi. Nafaqat xabardorlik, hatto u sirli sahifalar xususida savol berish salkam jinoyat sanalardi. Ko‘zimizdan berkitilgan millat tarixi, shukrki, Istiqlol sharofati bilan ochildi. Uni o‘qib, ma’naviyatimizning qatliom qilingan oltin avlodi faoliyatiga oid qimmatli ma’lumotlarga ega bo‘ldik. Tabarruk zotlar, ulamolar hayoti, ijodi, ularning millat charog‘bonlari o‘laroq olib borgan ezgu ishlariga, shuningdek, ayrim tarixiy voqea-hodisalarga butunlay boshqa tomondan, ya’ni yangicha nazar bilan qarash boshlandi.

Bugun yangi qiyofa kasb etayotgan O‘zbekiston – bu yangilanayotgan tafakkur, ong, butunlay yangi taraqqiyot yo‘lidagi fan-texnika maydonidir. Bu tarixiy va evolyutsion nuqtayi nazardan qaraganda O‘zbekistonda Uchinchi Renessans fenomenining boshlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan tarixiy, ma’rifiy, ilmiy-texnik hodisadir.

Bir paytlar jadidlik harakati muttasil qoralanib, biz o‘qigan kitoblarda ularning nomlari faqat salbiy sifatlar bilan keltirilgan bo‘lsa-da, ular bizning millatdosh, vatandosh ota-bobolarimiz ekanini ich-ichimizdan his qilar edik. Biroq ovoz chiqarib aytib bo‘larmidi? Sevimli adibimiz Abdulla Qodiriy bitgan romanlarni bemalol o‘qimoq qayda? Abdulhamid Cho‘lpon asarlari adabiyot javonidan olib tashlandi. Millat fidoyilariga “xalq dushmani” tamg‘asi bosilgandi. Fayzulla Xo‘jayev, Ubaydulla Xo‘jayev, Saidnosir Mirjalolov, Usmon Xo‘ja, Nosirxon to‘ra kabi ijtimoiy-siyosiy jabhalarda faol bo‘lgan, shaxs sifatida kamol topganlar ustiga bo‘hton mag‘zavalari ag‘darilgan edi. Jadidlar tomonidan xorijga o‘qishga yuborilgan talabalar taqdiriga qiziqish, hatto ularning ismini tilga olish ham ulkan jinoyat sanalardi. Tasavvur qilish mumkinmi u zamonlarni?

Bugun esa jadidlarimiz Vatan xizmatiga kamarbasta, ma’rifati bilan yurtini obod qilishni yurak tubiga joylagan yoshlar bo‘lgani barchamizga birdek ayon. Ular ozod mamlakatni, har jihatdan yangi hayotni orzu qilishgan edi. Biroq totalitar tuzum ona tili, muqaddas tuprog‘ini yaxshi ko‘rgan elparvarlarni o‘zlariga raqib bildi, xalqi uchun aziz jonini ayamaydigan insonlardan dushman yasadi.



Demoqchimanki, bugungi kunning qadriga yetish uchun fikrlash, o‘ylash, tafakkur yuritish lozim. Kecha va bugunni taqqoslamoq kerak. Shunda jadid ziyolilarining o‘z hisobidan maktablar ochgani, kutubxonalar tashkil etgani, sayyor teatr truppalarini tuzib, shaharma-shahar, qishloqma-qishloq ma’rifat tarqatib yurganlarining sababi ayon bo‘ladi. Zero, Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, “Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari – uyg‘oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san’at namoyandalari, ma’naviyat va ma’rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g‘arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur”.



Mahmudxo‘ja BEHBUDIY:

“Ey muhtaram yoshlar!
Aziz birodarlar, o‘g‘ul to‘ylarig‘a sarf qilaturg‘on aqchalaringizni mana shul ilm zamoni yo‘lig‘a sarf etingiz, sizdan o‘g‘lungizg‘a mol meros qolmasun, balki, albatta, ilm va tarbiya meros qolsun”.

Toshkentda Abdulla Avloniy boshlagan ta’lim islohotlarining uzviy davomchisi bo‘lgan Munavvar qori Abdurashidxonov, Samarqandda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Buxoroda Usmon Xo‘ja va boshqa fidoyi ziyolilar tomonidan olib borilgan tashviqot ishlari, elni g‘aflat uyqusidan ilm yog‘dusi ila uyg‘otishga qaratilgan sa’y-harakatlarini tahlil qilar ekanmiz, jadid bobolarimiz mamlakatning muhim jug‘rofiy nuqtalarida turib, xalqni birlashishga undaganini anglaymiz. Ular ilm-ma’rifat mayog‘ini boshi uzra baland ko‘tarib, yurtning qorong‘i go‘shalarini yoritishni maqsad qilgan, albatta.

Jadid bobolarimiz millatning fidoyi farzandi sifatida amalga oshirgan ishlari garchi o‘z davrida yetarlicha e’tirof etilmagan bo‘lsa-da, vaqt o‘tib ular orzu qilgan hurriyat qaror topdi. Uzoq yillar davomida bizga “yot unsur” deya ko‘rsatib kelingan, nafaqat o‘zi, balki butun oilasi bilan qoralanib, taqiq-u tahqirga mahkum qilingan ma’rifatparvarlar nomi to‘liq oqlandi va ular xotirasiga munosib ehtirom ko‘rsatila boshlandi.

2020-yilga kelib Prezidentimiz tomonidan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvar qori kabi xalq qahramonlari munosib qadr topib, “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlanishi haqiqat g‘alabasi, adolat tantanasi bo‘ldi. To‘g‘risi, shu millatning ziyoli bir vakili sifatida mening ham ko‘zlarimga quvonch yoshlari keldi. Chunki ular aytgan purma’no so‘zlar hali-hamon o‘z qiymatini yo‘qotgani yo‘q. “Haq olinur, berilmas!” Mahmudxo‘ja Behbudiyning ushbu yoniq so‘zlari bugun ming-minglab Vatanning asl farzandlari ko‘nglidan joy oldi.

Men har gal maktablar yonidan o‘tayotganimda Prezident Shavkat Mirziyoyevning Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etish maktab ostonasidan boshlanishini ta’kidlab: “Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”, degan so‘zlari har bir maktab binosi peshtoqiga yozib qo‘yilishi shart”, deb aytgan gapi esimga keladi. Zero, shijoatli, jasur, Vatanga sodiq yigit-qizlarning barchasi dastlab maktabda ta’lim-tarbiya oladi. Kamolotga yetgach, katta hayot maydoniga qadam qo‘yadi. Ular jadid bobolarining o‘gitlari asosida to‘kis tarbiya ko‘rsa, tabiiyki, mamlakatimiz har jihatdan taraqqiy qiladi, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida o‘ziga xos toza ma’naviy muhit yuzaga keladi.

Ta’lim islohotchisi Is’hoqxon Ibrat madaniyat va ma’naviyat yo‘lida e’tirofga munosib xizmatlar qilgani, yangi usul maktablari tashkil etgani, xorijdan zamonaviy

> “...Shavkat Mirziyoyev ustozlik zahmatini yaxshi biladigan, muallim mehnatini qadrlagan, o‘qituvchi degan nomni yuksaltirgan davlat rahbari bo‘ldi...”

texnikalar, xususan, kitob chop etadigan bosmaxona uskunalari olib kelgani – o‘sha paytdagi ijtimoiy-siyosiy muhit uchun juda katta yangilik edi. Bunday muhim tarixiy voqealardan xalqimiz keyingi yillardagina atroflicha xabardor bo‘lmoqda. Nazarimda, jadidlar orzu qilgan maktab islohotlari tom ma’noda so‘nggi yillarda juda keng miqyosda davom etmoqda.

Kishilik jamiyatining bir necha ming yillik taraqqiyot yo‘liga nazar solsak, bir tarixiy haqiqat ko‘zga yaqqol tashlanadi: qaysi davrda adolat jamiyatning bosh mezoni bo‘lib, ilm-fan, texnika, san’at va madaniyat taraqqiyotiga keng yo‘l ochilgan, uning ravnaqi uchun yetarli sharoit yaratilgan bo‘lsa, o‘sha zamonlarda misli ko‘rilmagan evrilishlar ro‘y bergan. Ijtimoiy hayot farovonlashib, odamlar turmushi to‘kinlasha borgan. Ilm-fan va madaniyat millatning ramzi sifatida uning jahon hamjamiyatidagi darajasini belgilagan. Buyuk iste’dod sohiblari Renessans hodisasini yuzaga keltiruvchi, millat va jamiyat taraqqiyotini harakatlantiruvchi kuch sifatida o‘zlarini namoyon etishgan.

Xalqimizda “Sulton suyagini xorlamas” degan naql bor. Shavkat Mirziyoyev ustozlik zahmatini yaxshi biladigan, muallim mehnatini qadrlagan, o‘qituvchi degan nomni yuksaltirgan davlat rahbari bo‘ldi. Yillar davomida o‘qituvchining gardaniga ilingan majburiy mehnat – paxta terish, chopiq, yagana qilish, daraxt oqlash, pilla terish, ko‘cha supurish kabi zahmatlardan pedagog va o‘quvchilar xalos bo‘ldi. Ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan yosh olimlar uchun ham juda katta imkoniyatlar yaratildi. Ilm-fan sohasini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga olib chiqildi.

Men o‘zim turli rahbarlik lavozimlarida, jumladan oliy ta’lim tizimida ishlagan kezlarimda kuz desa yuragim bezillab turardi. Ayni ilm oladigan pallasi paxta dalalarida qish-qirovli kunlargacha noqulay shart-sharoitda og‘ir mehnat zalvori ostida ezilayotgan talabalarga qarab, har qanday vijdonli o‘qituvchining joni achirdi. Ammo siyosat, zamon va talab shunaqa edi. Mana, bugun o‘sha kunlar haqida yoshlarga gapirsang, Abdulla Qahhor ta’biri bilan aytganda: “O‘tmishdan ertaklar” bo‘lib tuyuladi. Xudoga shukur, u kunlar ortda qoldi. Qaytmas bo‘lib ketgani chin bo‘lsin.

Xayriyatki, bugun o‘qituvchilarning hurmati joyiga qo‘yildi, ustozlarning azaliy maqomi asta-sekin o‘z mavqeiga munosib yuksalib boryapti. Ularning mehnati adolatli rag‘batlantirilib, oylik maoshlari oshirildi va ko‘plab imtiyozlar taqdim etildi.

Bir so‘z bilan aytganda o‘qituvchi obro‘si tiklandi. Prezidentimiz respublikamizdagi ta’lim dargohlarining ahvolini kaftdagidek ko‘rib, bilib, amaliy ishni aynan ana shu bo‘g‘indan boshlash kerakligini ta’kidladi, hukumat miqyosida o‘rtaga qo‘ydi. Islohotni eng kerakli nuqtadan, ya’ni maktabdan boshladi.

Ha, maktab jamiyatning yuragidir. Ertani farovon ko‘rishning eng muhim sharti – avlodning ta’lim-tarbiyasiga nazoratni kuchaytirish, mamlakat maktablarini xalqaro darajadagi zamonaviy ilm maskanlariga aylantirish. Bu haqiqatni davlatimiz rahbari xuddi jadidlar kabi juda teran angladi va o‘z islohotlari bilan bobolarimizning munosib davomchisi bo‘lib maydonga chiqdi. Shu ma’noda, men Prezidentimizni zamonamiz jadidi deb bilaman va u kishining ta’lim sohasidagi xatti-harakatlarini yangi zamon jadid harakati deb atashni juda-juda istar edim.

Bundoq qarasam, ko‘z ochib-yumgunimcha salkam bir asrlik vaqt o‘tib ketibdi. Tabiiyki, bu umr yo‘li bugungi Toshkent ko‘chalaridek ravon va charog‘on bo‘lmagan. Og‘ir, zahmatli kunlarni ham, izzat-hurmatga to‘la quvonchli damlarni ham ko‘rdim. Oyning o‘n beshi qorong‘i, o‘n beshi yorug‘, deganlaridek umrim yaxshilik bilan yomonlik, ezgulik bilan yovuzlikning doimiy ravishda murosasiz to‘qnashuvi maydoniga do‘ndi. Hayotning ana shu achchiq sabog‘i natijasida har qanday sharoitda ham insonni asraydigan ilohiy qudrat bu – ma’rifat, e’tiqod va iymon ekan, unga eltadigan yagona so‘qmoq esa – tajriba hamda bilim sanalarkan, degan xulosaga keldim.


Ustoz otangdan ulug‘, deydilar. Bu ta’rif, albatta, haqiqiy chin ma’nodagi ustozlar haqida, deb bilaman. Insonning toleyi kulsa, uni haq yo‘liga yetaklaguvchi yo‘lchi yulduz yanglig‘ piri murshidga ro‘para bo‘lar ekan. Taqdir meni ana shunday ustozlar bilan siyladi. Ustozlarimdan cheksiz minnatdorman. Ularning ruhlarini shogirdlik ehtiromi, toliblik mehri bilan yodlab, ularni alqab, ruhlarini shod etishni muqaddas burchim deb bilaman. Bu gaplarni bejiz aytmayapman. O‘ylab ko‘rsam, o‘sha og‘ir davrlarda fidoyi ustozlarimiz o‘zimizning qorako‘zlardan munosib izdoshlar chiqsin, millat ziyolilari safi kengaysin, milliy olimlar, ahli ilmlar ko‘paysin, deb boshlarini kundaga qo‘yib, bizni tarbiyalab, shakllantirgan ekan.

> “...O‘ylab ko‘rsam, o‘sha og‘ir davrlarda fidoyi ustozlarimiz o‘zimizning qorako‘zlardan munosib izdoshlar chiqsin, millat ziyolilari safi kengaysin, milliy olimlar, ahli ilmlar ko‘paysin, deb boshlarini kundaga qo‘yib, bizni tarbiyalab, shakllantirgan ekan.”

Tegirmon navbati bilan, degan mashoyixlar. Mana, bugun ustozlar oldidagi shogirdlik qarzimni ma’lum ma’noda uzish, o‘rganganlarimni yoshlarga o‘rgatish, oltin halqa uzviyligi buzilmasligi yo‘lida Iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash “Ulug‘bek” jamg‘armasini baholi qudrat boshqarib kelyapman. Navqiron o‘g‘il-qizlarimiz agar imkon berilsa, yulduzni uzib olishga qodir, o‘z oydinlariga munosib kuch-g‘ayratga to‘la avlod ekaniga faoliyatim davomida guvoh bo‘lyapman.

Yoshlarimizning aqliy imkoniyatlari, intellektual salohiyati hamda Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, tahlikali va g‘oyat ziddiyatli zamonda turli mafkuraviy xurujlarga qarshi mustahkam g‘oyaviy sobitligini namoyon etayotgani meni behad quvontiradi. Bir ustoz, ko‘pni ko‘rgan, yetarli hayotiy tajribaga ega bo‘lgan murabbiy, qolaversa, nuroniy kishi sifatida shogirdlarimga, farzand-u nevaralarimga qarab, umumjamiyatda yaratilgan amaliy imkoniyatlar qamroviga guvoh bo‘lar ekanman, tilimda shukrona aylanadi. Xulosa o‘rnida shunday degim keladi: sizga berilgan imkonni, imkon bergan zamonni, Yangi O‘zbekistonni qadrlang, seving va asrang!

MA’NAVIYAT tantanasi, ADOLAT g‘alabasi



Boshlanishi 1-sahifada.

Muqimiy, Furqat, Is’hoqxon Ibrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon kabi ma’rifatparvarlarimiz hayoti va faoliyati haqida badiiy va hujjatli filmlar suratga olingani, o‘nlab fidoyilarimiz, jumladan, Xo‘jayevlar sulolasining ayanchli qismati haqida hikoya qiluvchi “Armon” hujjatli filmi yaratilgani, tarixiy siymolarimiz, inchunin, ma’rifatparvar jadidlarimiz haqida bolalar va yoshlar uchun asarlar yaratish choralari ko‘rilayotgani ziyolilarimiz va yurtdoshlarimiz tomonidan katta quvonch bilan kutib olindi.

2021-yili Qorako‘l tumanida bo‘lib o‘tgan saylovchilar bilan uchrashuvda Prezidentimiz ilgari surgan ikki taklif – Buxoro shahridagi “Buxorolik savdogar uy-muzeyi” nomi bilan yuritib kelingan muzey nomini aslicha tiklash, ya’ni “Fayzulla Xo‘jayev uy-muzeyi” nomi bilan atash va Buxoro shahrida Abdurauf Fitrat nomidagi o‘zbek tili va xorijiy tillarni o‘qitishga ixtisoslashtirilgan Ijod maktabi faoliyatini yo‘lga qo‘yish bilan bog‘liq takliflar ko‘zda yosh va davomli olqishlar bilan qarshi olingani ham ko‘pchilikning yodida.

Eng muhimi, o‘sha muloqotdan ko‘p o‘tmay muzey nomi tiklandi, shahar turizm marshrutiga kiritilgan qadamjo yana gavjum manzillardan biriga aylandi. Buxoro shahri markazidan ajratilgan hududda Ijod maktabini qurish ishlari allaqachon boshlab yuborilgan.

Prezidentimiz o‘z nutqida sohibqiron Amir Temur, Alisher Navoiy kabi ulug‘larimiz, ayniqsa, jadid ma’rifatparvarlarining merosidan tez-tez iqtibos keltiradilar. Ularning ma’naviy jasorati aslida Prezidentimiz jism-u jonida har lahza barq urib turishi bugun nafaqat o‘zimizda, balki xorijda ham takror-takror e’tirof etilyapti. Yangi O‘zbekiston, Uchinchi Renessans g‘oyalari mohiyatida ulug‘larimizning orzu-umidlari mujassam ekanligi ham allaqachon o‘z isbotini topdi. Buning uchun amaliy choralar ko‘rilishi, ulug‘larimiz dahosi va merosini xalqqa, ayniqsa, yoshlarimizga yanada yaqinlashtirish zarurligini hayotning o‘zi ko‘rsatib turibdi.

Joriy yil 30-may kuni qabul qilingan “Jadidlar merosi davlat muzeyini tashkil etish to‘g‘risida”gi Prezident qarori, avvalo, ana shu hayotiy ma’naviy ehtiyoj, eng muhimi, ma’rifatparvar bobolarimiz siymosiga cheksiz hurmat-ehtirom ramzidir.

Qarorda ta’kidlanganidek, “ma’rifatparvar jadidlarning Vatanimiz va jahon tarixidagi muhim o‘rni va ahamiyatini, milliy istiqlolimizning ma’naviy asoslarini yaratishdagi fidoyiliklarini, ibratli hayoti va faoliyatini, boy ilmiy-ijodiy merosini chuqur o‘rganish va faol targ‘ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni yanada kengaytirish” maqsadi bundan keyin ham ustuvor ahamiyat kasb etaveradi. Bu jarayonda 2023-yil 22-dekabr kuni o‘tkazilgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida ilgari surilgan tashabbus muhim dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi.

Prezidentimiz tomonidan mazkur tashabbus ilgari surilgan sanadan e’tiboran Buxoroda jadidlik harakatiga oid mamlakatimiz va xorijdagi turli manbalar va tarixiy hujjatlarni aniqlash, to‘plash, saqlash, o‘rganish, tiklash, nusxalash, e’lon qilish, ular asosida muzey fondini boyitib borish va ekspozitsiyalarni yaratishga kirishilgan edi. Endilikda bu boradagi ishlar davlat ahamiyatiga molik faoliyat sifatida yangicha sur’atda davom etadi va xalqimiz qalbidagi orzular aks sadosi o‘laroq, yaqin fursatlarda muzey o‘z ishini boshlaydi.

So‘zimiz avvalida professor Temur Xo‘jao‘g‘lining orzu-armonlari haqida to‘xtalgan edik. Ne baxtki, uning orzusi amalga oshdi, armoni aridi. Qarorga ko‘ra, Usmonxo‘jadan meros qolgan, o‘z vaqtida jadid bobolarimizning o‘ziga xos ma’naviy maktabi maqomiga erishgan, Buxoro shahri, Xo‘ja Gulrez ko‘chasi, 13-uy manzilida joylashgan Hovli Poyon majmuasi Jadidlar merosi davlat muzeyiga aylantirildi. Muhtaram Prezidentimiz sa’y-harakati bilan tarixiy adolat tiklandi.

Bu – chinakam ma’naviyat tantanasi, adolat g‘alabasi. Va o‘z navbatida, ulkan ma’rifiy saboq hamdir. Demak, ezgulik yo‘lida sa’y etganlar xalq qalbidan hech qachon o‘chib ketmaydi. Vatan ozodligi yo‘lida jonini tikkanlar aslo unutilmaydi.

Shodmon SULAYMON,
Yozuvchilar uyushmasi a’zosi,
shoir



Inson qadrini yuksaltirish yo‘lidagi izlanishlar



Ibodullo HOTAMOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Yashil” iqtisodiyot kafedrasi mudiri, dotsent

Boshlanishi 1-sahifada.

Chunki har bir xonadon oziq-ovqatga bo‘lgan kundalik xarajatlarini o‘z qo‘li bilan yetishtirgan sifatli poliz mahsulotlari evaziga qoplasa, uning sohibi bozorga sumka ko‘tarib kamroq qatnaydi. Tanganing ikkinchi tomoniga qarasak ham bu islohotlar samara berib, hududdagi bozorlarda oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabni kamaytiradi, ehtiyoj bo‘lmagan bozorda narx-navo pasayishi turgan gap. Bu esa shaharda yashayotgan yurtdoshlar uchun ham oziq-ovqat mahsulotlarining arzonlashuviga olib keladi. Chetdan import qilinadigan mahsulotlarga ehtiyoj oshishining oldi olinadi. Pirovardida, samarali eksport ko‘rsatkichining o‘sishiga sabab bo‘ladi.

TIZIMLI ISHLAR NATIJA BERADI

Aholimiz turmush farovonligini oshirish uchun Prezidentimiz boshchiligida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, yer va suv munosabatlarini integratsiyalashtirish, innovatsion agrobiznes infratuzilmalarini raqamlashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-oktyabrdagi “Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini yanada rivojlantirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bu borada muhim hujjat bo‘ldi.

Mazkur qaror ijrosini ta’minlash uchun mahalla va hokimiyat organlari xodimlari tomonidan tuzilgan ishchi guruhlar olib borgan tashviqot va amaliy sa’y-harakatlar natijasida aholining sezilarli qismi o‘zini o‘zi band qilish va oilaviy daromadini oshirishga erishdi. Chunki mazkur qaror asosida kreditlar bog‘dorchilik, uzumchilik va limonchilikni tashkil etish uchun 3 yilgacha imtiyozli davr bilan 7 yilgacha muddatga berildi. Chorvachilik (qoramol, qo‘y, echki), baliqchilik va parrandachilik (tuxum yo‘nalishi) uchun 1 yilgacha imtiyozli davr bilan 3 yilgacha muddatga har bir mahallaga biriktirilgan hokim yordamchisining tavsiyalariga muvofiq tuman (shahar) Oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash markazining asoslantirilgan va natijadorligi aniq hisob-kitob qilingan holdagi kreditlari butun respublika aholisiga yo‘naltirildi.

Bundan tashqari, dehqon xo‘jaligi va to‘rt sotixdan kam bo‘lmagan tomorqa yerida band bo‘lgan yoki ushbu uchastkada qoramol yoxud ellik boshdan kam bo‘lmagan parranda parvarishlayotgan jismoniy shaxslar tomonidan Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasiga yiliga bazaviy hisoblash miqdorining bir barobari miqdorida sug‘urta badali to‘langan taqdirda, bir yil muddat uning mehnat stajiga kiritiladigan bo‘ldi. Bunday imtiyozlar aholi xonadonlarida nafaqat tomorqa, balki parrandachilik kabi oilaviy tadbirkorlik yo‘lga qo‘yilishiga olib keldi. Natijada qishloq joylardagi aksariyat xonadonlarda oziq-ovqatga bo‘lgan talab o‘z ichki imkoniyatidan qoplana boshlaganiga guvoh bo‘lib turibmiz. Bu ko‘rsatkichlar ushbu tizimli ishlarni yanada jadallashtirishni taqozo etadi.

“ ...Aholi sonining o‘sishi, yer, suv va energiya resurslariga bo‘lgan talabning ortishi, shuningdek, iqlimning keskin o‘zgarishi oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga ta’sir etuvchi asosiy omillardir...”



BELGILANGAN MAQSADLARGA ERISHILMOQDA

Oziq-ovqat xavfsizligi keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va ekologik omillarga bog‘liq bo‘lib, mamlakat rivojlanishining asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Oziq-ovqat xavfsizligining to‘rt tarkibiy qismi (oziq-ovqatning mavjudligi, uni xarid qilish qobiliyati, undan foydalanish va uning barqarorligi) bo‘yicha davlat siyosati ishlab chiqildi.

Aholi sonining o‘sishi, yer, suv va energiya resurslariga bo‘lgan talabning ortishi, shuningdek, iqlimning keskin o‘zgarishi oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga ta’sir etuvchi asosiy omillardir. So‘nggi yillarda mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash bo‘yicha bir qator choralar amalga oshirilishi natijasida mamlakatimiz bosqichma-bosqich global reytinglarda o‘z mavqeini yaxshilab bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi 2022-yilda Global ochlik indeksi bo‘yicha 15,4 ko‘rsatkich bilan 121 mamlakat orasida 21-o‘rinni egallab, “mo‘tadil” darajaga erishdi. Taqqoslash uchun, ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha Qozog‘iston – 24, Rossiya – 28, Armaniston – 32, Ozarbayjon – 36, Qirg‘iziston – 40, Tojikiston – 67-o‘rinni egallagan. Shu bois sohaga kooperatsion bozor mexanizmlarini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish hamda kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi” qabul qilindi.

Mazkur ustuvor yo‘nalishning asosiy maqsadi – respublika aholisining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan davlat siyosatini ishlab chiqish va uni samarali amalga oshirishdan iborat. Ustuvor yo‘nalish aholini barqaror narxlardagi xavfsiz va sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashga qaratilgan. Bu esa O‘zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanish maqsadlarining ikkinchisi, ya’ni “Ochlikka barham berish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, iste’molni yaxshilash va barqaror qishloq xo‘jaligini targ‘ib qilish”da belgilangan maqsadlarga erishishga xizmat qiladi.

FAROVONLIKKA ELTUVCHI YO‘L

Global iqlim o‘zgarishlari oqibatida bugungi kunda dolzarb masalaga aylangan oziq-ovqat ta’minoti barqarorligini ta’minlash nafaqat qashshoq mamlakatlarni, balki rivojlanayotgan, hatto taraqqiy etgan davlatlarni ham tashvishga solmoqda. Shu o‘rinda yapon xalqining “Sen farzandingning qornini emas, miyasini to‘ydir, u o‘zini boqib oladi”, degan naqlini eslashni joiz deb o‘ylayman. Jahon bozorlarida oziq-ovqat narxlarining keskin tebranishini hisobga olib, ichki bozorda ham narxlar barqarorligini saqlash, avvalo, aholini yetarli miqdorda oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashga e’tibor qaratish zarur.

Binobarin, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamini subsidiya va tomorqadan unumli foydalanish texnologiyalari asosida oziq-ovqat bilan ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirish talab etiladi. Shuningdek, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni ijtimoiy obyektlar bilan integratsiyalash, boshoqli don yetishtirishda davlat intervension xaridlar tizimini joriy qilish, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari narxlarini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmidan bosqichma-bosqich voz kechish muhim ahamiyatga ega.

Boshoqli donni kvota asosida bozor narxlarida sotib olish mexanizmini joriy etish, aholi orasida sog‘lom iste’mol madaniyatini targ‘ib qilish bo‘yicha uzoq muddatli dastur ishlab chiqish, xalqaro darajada tan olingan uslubiyatlar va ilg‘or tajribalar asosida oziq-ovqat xavfsizligini baholash tizimini joriy qilishni jadallashtirish maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi tomorqa tizimini isloh qilish orqali uning ijrosini doimiy monitoring qilish va hokimlarning faoliyatini shu orqali muntazam baholab borish tizimi yo‘lga qo‘yilgani ta’sirchan ahamiyatga ega bo‘ldi. Ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulot turlari ishlab chiqarishni intensivlashtirishga doir tarmoq dasturlarini moliyalashtirish ham dolzarb hisoblanadi.

AHOLINING DOIMIY OZIQ-OVQAT TA’MINOTI BARQARORLIGI

Joriy yilning 16-fevralida qabul qilingan “Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Farmoniga asosan “O‘zbekiston Respublikasining oziq-ovqat xavfsizligi va sog‘lom ovqatlanishni ta’minlashning 2030-yilgacha mo‘ljallangan strategiyasi” hamda ushbu strategiyani amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” tasdiqlangani bu borada muhim amaliy qadam bo‘ldi.

Davlat rahbari tomonidan qishloq xo‘jaligida almashlab ekishni jadallashtirish, fermerlarni serhosil urug‘lar bilan ta’minlash vazifasi qo‘yilgani bejiz emas. Asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini ko‘paytirishda parrandachilik va chorvachilikni qo‘llab-quvvatlashning ahamiyati katta, chunki ushbu sohalar aholini arzon, to‘yimli va tez yetishtiriladigan mahsulotlar bilan ta’minlashda katta ahamiyatga ega. Biroq aksariyat viloyatlarda parranda go‘shti aholi talabiga yarasha yetishtirilmayotgani va bu yo‘nalishdagi 50 dan ziyod yirik korxonalar yarim quvvatda ishlayotgani hali bu borada oldimizda salmoqli vazifalar turganidan dalolat beradi.

Bugungi kunda 2 million gektardan ortiq sug‘oriladigan yerlarning gumus miqdori 1 foizdan past darajaga tushib qolgani, 44 foizi turli darajada sho‘rlangani ekinlardan mo‘l hosil olishga va ekin maydonlaridan barqaror foydalanishga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Yana bir e’tiborli jihati, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining bozordagi narx-navoni asossiz oshirish, raqobatni buzish, bozorga kirishga to‘sqinlik qilish holatlari bo‘yicha vakolatlari kuchaytirildi. Viloyatlar hokimlariga o‘z hududida yetishtirilmaydigan mahsulotlar importi bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlarga kredit olishida ko‘maklashish, logistika va import bilan bog‘liq barcha jarayonlarda ularga amaliy yordam ko‘rsatish belgilab berildi.

Bu jarayonda aholi tomorqalaridan zaxira sifatida oqilona foydalanish, buning uchun ularga zarur shart-sharoitlar yaratish, ya’ni aholi tomorqasini suv bilan ta’minlash uchun mahallabay ishlash rejasi asosida har bir ko‘chaga katta artezian quduqlar qurib berish va ularni samarali ishlatish mexanizmlarini tatbiq qilish zarur.

YANGI O‘ZBEKISTON STRATEGIYASI – TARAQQIYOT YO‘LI

Mamlakatimizda iqlim o‘zgarishlari bilan bog‘liq xavf-xatarlarni o‘rganadigan va uning iqtisodiy-ijtimoiy holatlariga baho bera oladigan kadrlar tayyorlash tizimi yo‘lga qo‘yilishi zarur. Albatta, bu borada xorijiy tajribalardan kelib chiqib “Bioekologiya” va “Ekolog-iqtisodchi” ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha kadrlarni tayyorlashni yo‘lga qo‘yish lozim.

Qolaversa, tabiat injiqliklari ortib borayotgan hozirgi davrda oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va ularni qayta ishlash bilan bog‘liq xavf-xatarlar oqibatlarining oldini olish va keltirilgan zararlar hisobini yuritishda ham malakali mutaxassislarga talab ortib bormoqda.

Shu bois “Bioekologiya”, “Bioiqtisodiyot” va “Ekolog-iqtisodchi” ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish, bu borada xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish va amaliyotga tatbiq etishga e’tibor qaratish vaqti keldi.

Muxtasar aytganda, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish yo‘lida shaxdam qadam tashlayotgan Yangi O‘zbekiston barcha tarmoq va sohalarda barqaror rivojlanish sari dadil odimlamoqda.



Erkin VOHIDOV,
O‘zbekiston Qahramoni,
O‘zbekiston xalq shoiri

KO‘NGILCHANLIK

Boshlanishi 1-sahifada.

Eshikkacha kuzatib qaytgach, bizdan so‘radilar:

– U odam kim?

Hammamiz hayron bo‘ldik:

– Ajabo, o‘zingiz quchoqlashib ko‘rishdingiz, uzoq otamlashdingiz. Qadrdoningiz emasmi?

– Umrimda ko‘rgan bo‘lsam, o‘lay.

– Unda nega endi…

– Ay, bo‘talarim-a! Uzoqdan quchoq ochib kelgan odamga, kimsan, deb bo‘ladimi? Andisha bor-ku, o‘zbekmiz-ku! – deya biroz sukut qilgach, qo‘shib qo‘ydilar: – Bir elning bolalari tug‘ishgan bo‘ladilar. Og‘amdir, inimdir, bitta qadrdonim ko‘paysa ko‘payibdi-da!

Yetmishinchi yillarda she’riyat ham, otaxon shoirimiz G‘afur G‘ulom nomi bilan atalgan nashriyot ham gurkiragan, lekin ana shu nashriyotning ayni she’riyat bo‘limida ishlar pachava edi. Bo‘limda Mirtemir domla, Abdulla Orif va kamina ishlar edik. Domla shogirdlardan, Abdullajon muxlislardan, men shaxmatdan ortmas edik. Qo‘lyozmalar vaqtida topshirilmagan, korrekturalar o‘qilmagan, plan bajarilmagan, hamma ish o‘lda-jo‘lda. Nashriyot direktori bir majlisda zarda bilan “She’riyat bo‘limini yopish, tarqatish kerak”, degan. O‘shanda zo‘r javob aytilgan edi:

– Tarqatish uchun avval yig‘ish kerak. Uch xodimni to‘plab bo‘lmasa, qanday tarqatasiz?

– To‘playman, tarqataman, – dedi direktor va aytganini qildi. Ya’ni uchovimizni o‘z xonasida yig‘di.

Ajoyib inson edi direktorimiz To‘lqin Rustamov. Mirtemir domla bilan tengdosh, eski qadrdon, sensirashib gaplashadigan o‘rtoq edi.

Rahbar uzoq gapirdi. Partiya siyosati, davlat oldidagi mas’uliyat, nashriyot plani, intizom nima ekanini bizga yaxshilab uqtirdi. Mirtemir domla uning har gapiga bosh irg‘ab ma’qullab o‘tirdilar. Oxiri ma’lum bo‘ldiki, biror so‘z domlaning tom bitgan qulog‘iga kirmabdi. Direktor:

– Mirtemir, qani ayt, gaplarim to‘g‘rimi? – deganda ustoz:

– To‘g‘ri aytasan, To‘lqin, bibliotekani tartibga solmasa bo‘lmaydi, – dedilar.

Tashqariga chiqqach, domlani o‘rtaga oldik. Ustoz:

– O‘lay agar, bir og‘iz so‘zini ham eshitmadim, uyat bo‘ldi, juda uyat bo‘ldi, – derdilar.

– Qattiqroq gapir, desangiz bo‘lmasmidi, axir o‘z qadrdoningiz-ku!

– Oshnam bo‘lsa ham xo‘jayinim. Rahbarga indab bo‘ladimi! Kattakonning gapini bo‘lish odobdan emas, bo‘talarim.

Biz Mirtemir domlaga aytardik:

– Biz yoshlar davlat xizmatini qilishga majburmiz. Siz ulug‘ shoirsiz. Shu arzimas oylikning bahridan o‘tib, har yil bir kitob chiqarsangiz, ko‘nglingiz xotirjam, qulog‘ingiz tinch, cho‘ntagingiz o‘n karra baquvvat bo‘ladi-ku.

Domla javob berar edilar:

– Shundaylikka shunday. Lekin men ketaman, desam direktoring xafa bo‘ladi-da. Do‘stimni ranjitsam bo‘lmas.

Biz ustozning bu so‘zini direktorga aytib, domlaga ruxsat bering, pensiya yoshidalar, charchaganlar, desak, direktor: “Domlang o‘zi so‘ramasa, ariza bermasa, men qanday qilib ket, deyman”, derdi.

Bu o‘zaro ko‘ngilchanlik yana bir yilcha davom etdi. So‘ng oldinma-keyin uchovlon ham “o‘z arizamizga ko‘ra” nashriyotni tark etdik. Manas, Dante, Gyote mushkulimizni oson qildi. Uch buyuk shoh asar tarjimasini zimmamizga olib, nashriyot bilan xayrlashdik.

MIRTEMIRNI TUSHUNISH

Miraziz A’ZAM

Men, ayniqsa, Mirtemirning til boyligi haqida alohida to‘xtalib o‘tgim keladi. U xalq iboralari, so‘z boyligi, xususan, o‘simliklar, hayvonlar, uy-ro‘zg‘or buyumlari, jihozlar va etnografiyaga oid shu qadar ko‘p turkiy so‘zlar ishlatadiki, ularning ko‘pchiligi, ikki jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da yo‘q. Bu lug‘atda o‘zbeklar ishlatmaydigan va tushunmaydigan arab-fors so‘zlari tiqilib yotgani holda, nima uchun Mirtemirning o‘zbeklarga tushunarli turkiy so‘zlari lug‘atga kiritilmagani mutlaqo tushunarsizdir.

Mana, o‘sha mashhur “Onaginam” she’rini olaylik:

Tovonimga chaqir tikanakday
botguvchi – g‘ashlik,
*Bedavo **sizloviq**day **sizlatguvchi** –*
g‘ashlik,

deya boshlanadi u.

Baytdagi har o‘zbekka tushunarli bo‘lgan **sizloviq, sizlatguvchi** so‘zlari “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da yo‘q.

Yoki shoir “Asarlar”ining 3-jildi, 70-betida: “Zanglamish boltalar, siniq **sungu**lar”, degan satrni uchratamiz. Bu yerdagi sungu ruslar “штык” deb ataydigan so‘zning o‘zi ekanligi tushunarli emasmi, nega lug‘atga kiritilmagan? Yoki xuddi shu shakldagi **suygu** so‘zi **sevgi, yoqtirish** ekani anglashilmaydimi?

Zulmlarning bormikin cheki,
Qanday sovuq, zo‘ravon suygu? –

bu yerda gap zo‘rlik bilan sevish, bir tomonlama sevish ustida borayotgani besh qo‘lday ayon bo‘lib turibdi-ku! Nega o‘zbek so‘zligimizdan o‘rin olmagan?

Yana Mirtemirning tarjimalarida:

– Yo savdogar o‘g‘li oyoq chaldimi –
Moskva-rekada, musht janglarida?
Javob berar shunda Kiribeyevich,
Jingalak sochlarin silkitib turib:
*– O‘shandoq zo‘r **yudruq** tug‘ilgani yo‘q.*
Na savdogar va na boyar zotida,

kabi satrlar aro kelgan, bir necha karra ishlatilgan ajoyib turkiy so‘zimiz “yudruq” ham lug‘atimizda uchramaydi.

Yoki yana bir misol. Mirtemir domla qirg‘iz do‘stlarga bag‘ishlangan bir she’rida “bovurdoshlik” so‘zini ishlatadi. Bu yerdagi “bovur” “bag‘ir” degan so‘zning o‘zi. Shoir o‘zbek tiliga “bag‘irdoshlik” ma’nosida “bovurdoshlik”ni olib kirmoqchi bo‘lgan. Lug‘atda xuddi shu so‘z kirishi mumkin bo‘lgan joyga o‘zbeklarning 70-80 foizi tushunmaydigan va ishlatmaydigan “bovujud” so‘zi qo‘yilgan. Boring, ana, “bovujud” ham kira qolsin, ammo nega o‘zbek tilida O‘zbekiston xalq shoiri amalda ishlatgan “bovurdoshlik” so‘zini kiritmaslik kerak?

Yoki “o‘ba” so‘zini olaylik. Shoir yozadi:

Meni chorlar hatto yozning
yolqini...
*Yaylov, **o‘ba,** paxtazorlar salqini...*

O‘ba so‘zining ma’nolari ko‘p. Turkiy xalqlarning deyarli hammasida eng ko‘p tarqalgan ma’nosi: **qir, tekislik, tashqaridagi yer**dir. Shoir ham shu ma’noda qo‘llagani ko‘rinib turibdi. (Bir daf’a Usmon Nosir qabrini ziyorat qilgani Kemerovo viloyatiga borganimizda, o‘sha yerlik bir kishi Kemerovo – Ko‘miro‘ba degani, ya’ni o‘sha tekislik ko‘mir koni bo‘lganini, so‘ngra o‘sha yerda qad ko‘targan shahar ham shu nomni olganini aytib bergandi) Bu so‘z ham o‘zbekcha so‘zligimizda yo‘q.

Yana bir oddiygina so‘z: **qumloq, toshloq** singari **tuzloq.**

Bo‘lgan ekan bu joy bir kez kattakon tuzloq...

Yo‘q-yo‘q, bu so‘zni ham lug‘atimizdan qidirib ovora bo‘lmang.

Bunday misollarni ko‘plab keltirishimiz mumkin. Ammo bu yog‘iga shunday so‘zlarning ayrimlarini keltirib qo‘ya qolaman: **yelpiramoq, dong‘il, yang‘iroq, utta, yopog‘i, eltir, chalqi, chalqimoq, dirgizlash, otoq, ketmonlik, ketmontepa, qapchig‘ay, achitgulik** va hokazolar. Bu so‘zlarning barchasi bir-ikki o‘tirishda ko‘zimga chalinganlari xolos. Menimcha, lug‘atchi olimlarimiz “Navoiy asarlari lug‘ati” tuzganlari kabi “Mirtemir asarlari lug‘ati” ham tuzishsa, turkiy tilimizning boyligini ko‘rsatuvchi bir vatanparvarlik burchini ado etgan bo‘lardilar.

MIRTEMIR, O‘zbekiston xalq shoiri



* * *

Roziman, rizoman, o‘la-o‘lguncha
Xalqim deb o‘ldim.
Xalqim nima bo‘lsa, men o‘sha bo‘ldim,
Yuragim, bo‘g‘ilma, o‘rtanma buncha!
O‘zimga xiyonat qildim-u aksar,
Xalqimga xiyonat o‘ylaganim yo‘q.
Mening yuragimni teshib o‘tdilar
Xalqimga otilgan talay-talay o‘q.
Qancha yo‘llar bosdim, gohida toldim,
Lekin xalq nomiga yuqtirmadim gard.
Faryod solar chog‘da jim bo‘la oldim,
Xalqim dardi edi dil o‘rtagan dard.
Xalqim etagida yetdim voyaga,
Xalq bilan kuldim.
Bardoshim so‘z bermas,
deyman, qoyaga…
Roziman, o‘lguncha xalqim deb o‘ldim.

* * *

Ko‘zingni o‘ynatma, kulma, qarama,
Nozli nigohlaring kerakmas sening.
Bog‘lab olarman, deb endi o‘ylama…
Tortgan u “oh”laring chin emas sening.

Ko‘p kunlar sudrading tusmol yo‘llarda,
Men-da tilsizlarcha ergashdim-ketdim.
Adashgan ekanman, bilsam, cho‘llarda,
Mana endilikda tushunib yetdim…

Tushundim: u totli xayollar – xayol,
Aldanmas bu yurak shirin so‘zingga.
Yo‘qol, ey aldamchi, yondashma, yo‘qol,
Termulish yo‘q endi orsiz yuzingga!

Jilmayma, qarama, so‘zlama menga,
Eski afsonani kuylama menga……

CHECHAN SHOIR

Qozoqboy YO‘LDOSH

Mirtemir o‘zbeklarga xos ma’naviy-ruhiy sifatlarni favqulodda sof holda o‘zida saqlay bilganligi hamda bu holni ijodida yorqin namoyon etganligi bilan ajralib turadi. U o‘zbek mumtoz adabiyotidan ham, jahon she’riyatidan ham yaxshi xabardor edi. Ammo o‘zbekka xos xususiyatlarni xalqona yo‘sinda ifodalay olish Mirtemir she’riyatining bosh belgisi hisoblanadi. Shoirning fikrlash tarzi ham, olamni obrazli idrok etish yo‘sini ham xalqona. Ifoda uslubi esa, mirtemirona betakror.

Har qanday so‘z – belgi. Xalqning turmush tarzidagi o‘ziga xoslikni ifodalovchi so‘zlar esa muayyan millat hayotininggina emas, ruhiyatining ham belgilariga aylanadi. Mirtemir ulusning tirikchilik yo‘sinida milliy sezimlarini ko‘ra biladigan va ko‘rsata oladigan shoir edi. Shoirning “Hali ham” she’ridan olingan quyidagi misralarning nechog‘lik o‘zbekonaligiga e’tibor qiling:

Onam non yopadi bo‘g‘riqib-bo‘rtib,
Dam-badam kuyadi qo‘li yengsakda.
Chiviq toycham gijing, yo‘rg‘alab-yo‘rtib,
Hadeb aylanaman shu tevarakda.

Mirtemir – nozik va o‘zgaruvchan ruhiy holatlarni ustalik bilan chiza oladigan shoir. Gohida uning she’rlarini xalq qo‘shiqlaridan ajratish qiyin. Shoir poetik niyatni xalqona sodda, jaydari yo‘sinda amalga oshiradi. She’rlaridagi har bir so‘z, har bir tovushning o‘z o‘rnida qo‘llanilib, xalq qo‘shiqlari singari poetik ohang hosil qilishiga erishadi: “U go‘yo saxiy emish, Ko‘lik beraman dermish. Olmagin ko‘ligini, Ortadi o‘ligini...” Yomon odamning tuban qilmishidan ogohlantirish ko‘rinib turgan bu satrlardagi ifoda ham, ma’no ham xalq og‘zaki ijodining kuchli ta’sirida ekanligi seziladi.

Mirtemir she’riy so‘zni o‘ziga xos tarzda qo‘llaydi. Shoir so‘zni shunday ishlatadiki, uning ma’nosi kengaygandek bo‘ladi. Odatda quloqqa biroz g‘alizroq eshitiladigan atamalar ham Mirtemir she’rlarida kutilmagan yangi jilo kasb etadi. Natijada she’riy ifoda tushunarliroq bo‘ladi, aytilayotgan poetik fikrga munosabat uyg‘onadi:

Ko‘zga g‘ubor chekmasa, shiprindi – qo‘qim,
O‘zin tulpor bilmasa qirchang‘i, so‘qim,
Baxmaldan bichilmasa eshakka to‘qim
Qaniydi...

Mirtemir o‘zbekning hayot tarzinigina emas, balki uning olamni obrazli idrok etish yo‘sinini ham g‘oyat puxta bilgan shoirdir. Shoir xalq turmushiga oid jihatlarni bilish bilangina kifoyalanmaydi, balki ichdan tuyadi. Shu sabab uning ijodi millatning ruhini ifodalashi jihatidan tengsizdir. Mirtemir: “Bitta paydo bo‘lsa bas, Ketar ekan kuchuklab”, deb yozadi “Shumg‘iya” she’rida. Fikrni bunday ifodalash o‘zbek dehqonigagina xos. Boshqa bir she’rida tabiat manzarasini shoir shunday ifodalaydi: “Qor yog‘ar elab-elab, Olamni oqqa belab. Kakliklar tog‘dan tushib, Donsiz, panasiz ushib”. Qor yog‘ishini unni elashga o‘xshatish topishmoqlarda bo‘lardi. Bu usulni she’riyatga yolg‘iz Mirtemirgina jozibali qilib ko‘chira oldi. Sovqotmoqning “ushik urmoq”, “ushikmoq” singari shakllari xalq orasida siyrak ishlatilardi. Lekin uni she’riyatda qo‘llash va bu asnoda kayfiyat yaratishga ham erishish faqat katta san’atkorlargina uddalay oladigan yumushdir. Yoki “Ko‘kni bulut olalaydi, Emish bo‘ri bolalaydi” (“Buqabuloq” she’ri) misralaridagi bulutning olalamog‘i bilan bo‘rining bolalamog‘i orasidagi bog‘liqlik shunchaki qofiyaga ehtiyojmandlik natijasi emas, balki chorvador bobolar hayot va tafakkur tarzi bergan xulosalarning betakror ifodasidir. “Bo‘zto‘rg‘ay” she’rida shoir shunday ifodadan foydalanadi: “Ko‘rinmas bir ipga osig‘lik go‘yo”. Bo‘zto‘rg‘ay holati haqida bundan ham sodda, bundan ham xalqona, bundan ham go‘zal, bundan ham oddiy va bundan ham to‘g‘ri ifodani uchratish qiyin.

“Ko‘klamda...” she’rida shoir yosh yigitlarning ruhiy holatini tashqi kolorit yordamida juda nozik ifoda etadi: “Podachi to‘rsig‘i – qo‘yning qatig‘i, Qora qo‘y qatig‘i – o‘g‘izdek quyuq, Yigitlar yallasi sartopo tuyuq – Ko‘zlar suzukligi, qoshlar chatig‘i”. Bo‘z yigitlar yallasi boshdan-oyoq tuyuq, ya’ni jumboqli. Qizlar ko‘zlarining suzukligi-yu, qoshlarining payvastaligi haqdagi nozik ishoralar bu yallalarga mavzu. Ayni vaqtda, shoir tajribali chorvadorday, qora qo‘y qatig‘ining quyuqligini ham o‘z joyida ta’kidlab ketadi.

Mirtemir qo‘lga ilinmaydigan mavhum holatlarni moddiylashtirish bobida ulkan salohiyatga ega shoirdir. Uning: “Tun beun jilmakda go‘yo sizot suv” (“Tun...” she’ri) singari ifodasi tasvir ufqining kengligidan dalolatdir. Shoir jo‘ngina, maishiy turmushda hamma tomonidan har kuni ishlatiladigan so‘zlarga chuqur va kutilmagan ma’nolar joylay biladi hamda ularni shunday o‘rinlashtira oladiki, natijada porloq ruhiy manzara yuzaga keladi.

Mirtemirning she’rlaridagi ravonlik uning tilni mizni yaxshi bilishi, xalq ijodiga bo‘lgan mehrining samarasidir. Mirtemir she’rlarida so‘zlar o‘z-o‘zidan oqib keladi. Chechan shoir xuddi erkin so‘zlashib o‘tirgandek jonli yozadi. She’rlaridagi biror so‘z zo‘rlanmagan, dabdabadan uzoq. Shoir satrlaridagi biror so‘zni o‘zgartirib bo‘lmaydi. Agar o‘zgartirilsa, mirtemirona ohang, ohor yo‘qoladi. U tesha tegmagan o‘xshatishlar, qiyoslar, timsollar topgani uchun she’rning tarovati ortib, o‘quvchi qalbiga zavq beradi, ehtirosga to‘ldiradi.

Mirtemir “Betoblikda”, “Acha”, “Suygulik”, “Chaqmoq”, “Toshbu” va boshqa ko‘plab she’rlarida ko‘pincha birgina satrga olam-olam ma’no yuklay olganini ko‘rish mumkin. “Betoblikda” she’rida kishi yuragidagi eng nozik, yashirin tuyg‘ular ajib bir samimiyat, ulkan dard, adoqsiz iztirob mahorat bilan ifodalangan:

Majnuntol tagiga o‘tqazing meni,
Shu kungacha o‘zni men cheklab bo‘ldim.
Majnuntol tagiga o‘tqazing meni,
Men uchun yig‘lasin, men yig‘lab bo‘ldim.

Bu she’r katta hayot yo‘lini bosib o‘tgan donishmand insonning alamli iqroriday yangraydi. Betoblikda odam umr va uning mazmuni haqida ko‘p o‘ylaydi. Lekin faqat shoirona ko‘zga ega bo‘lgan iste’dodgina o‘z holini suv bilan sirlashayotgan majnuntolga qiyoslay oladi. Shoirning majnuntol tagiga o‘tqazishlarini o‘tinishi tushunarli. Betob odamga havo yetishmaydi, majnuntol suv bo‘yida o‘sadigan, soyasi qalin og‘och bo‘lganidan, shoir iltijosini anglash qiyin emas. Lekin uning: “Shu kungacha o‘zni men cheklab bo‘ldim” qabilidagi iqrorini tushunish mushkulday. Chindan ham qanday cheklash haqida gap ketyapti o‘zi? Kasal odam bir dunyo cheklashlar iskanjasida bo‘lishi aniq. Hayajonlanish, ko‘p yurish, o‘qish, xullas, shifoxonada davolanayotgan odamga bir olam narsa “mumkin emas”. Bu satr zamirida bundan boshqa biror yashirin ma’no ham bo‘lishi mumkin. Sovet zamonida yashab ijod qilgan shoir bir umr haqiqatni ochiq aytish imkoniga ega bo‘lmay, o‘zini cheklab, tilini tiyib keldi. Endi umr quyoshi botib boryapti. Ehtimol, ko‘ngildagini aytishga qo‘ymay cheklashlar ham, topshiriq bilan tasvirlangan soxta quvonchlar ifodasi ham jonga tegdi, demoqchidir shoir? Keyingi misraning “Men uchun yig‘lasin, men yig‘lab bo‘ldim” shaklida ekanligi ham fikrimizni tasdiqlashga xizmat qilishi mumkin.

Mirtemir she’rlarida hayotdagi oddiy voqeadan katta falsafiy xulosalar chiqarish, tasvirda inson ruhiy holatidan kelib chiqib ish tutish tamoyili kuchli. U ona tabiat tasviriga bag‘ishlangan, to‘rg‘ayning sayrashi-yu qaldirg‘ochning uya qurishi kuylangan she’rlarida ham Vatanga mehrni, tug‘ilgan yerga bog‘liqlikni aks ettiradi. Shoirning “Tuproq to‘g‘risida”, “Men tug‘ilgan tuproq”, “Tag‘in tuproq to‘g‘risida” she’rlari ona yer uchun aytilgan madhiyadek yangraydi. Yurt tuprog‘ining har bir gardi – cho‘l-u biyoboni-yu, tog‘-u toshigacha shoirga suyukli, ardoqli. Shoirning bu she’rlarida tabiiylik kuchli, ular yaltiroqlikdan, jimjimadorlikdan, sun’iy balandparvozlikdan juda ham uzoq.

Shoirning “Ona tilim” she’rida uning tilga bo‘lgan muhabbati butun ifori bilan berilgan. Til xalqning asosiy ma’naviy boyligi, so‘nggi qo‘rg‘oni ekan, har bir millatparvar o‘z tilini hurmatlashi, u rivojlanishi uchun qo‘lidan kelganicha xizmat qilishi darkor. Mirtemirning qiyoslari ham o‘zbekona: “Ona tilim – onajonim tili bu, Beshikdanoq singgan jon-u quloqqa. El-u yurtim, xonumonim tili bu, Qadimlikda o‘xshar ona tuproqqa”.

She’rda Mirtemir ona tilining butun go‘zalligini, uning qanchalik boy va jilvakorligini samimiy satrlarda kuylaydi. Til tufayli inson dunyo go‘zalligini, “yobonlarning cheksizligi”, “jilg‘alarning sho‘x g‘ovuri”, “tog‘larning jilosi”ni so‘zga ko‘chira oladi. Ammo tilga ham xuddi inson boshiga tushgandek har xil ko‘rgiliklar tushishi mumkin. Zamon taqozosi ila ayrim tillarning yo‘q bo‘lib ketganiga tarix guvohdir. Shoir ona tilining barcha davrlar sinovidan o‘tganini faxr ila so‘zlaydi:

Talonlarda talanmish, yong‘inlarda qovrilmish,
Ertaklar-u cho‘pchaklik odimi til bu.
Bo‘ronlarda somondek talay-talay sovrilmish,
Bu dunyoning o‘ziday qadimiy til bu.

Mirtemir ulug‘ tarixiy shaxslarning bu tilga hurmatini, o‘zining shu tilda tafakkur va adabiyot durdonalari bilan tanishganligini g‘urur ila ta’kidlaydi. She’r nihoyatda optimistik ruhda yakunlanadiki, bugungi kunda shoir niyatlari ro‘yobga chiqayotganiga kitobxon dil-dildan ishonadi: “Bobolardan bizga meros, ezgu til, Avlodlarga xazinayi bebaho. Qalbimizga, jonimizga ko‘zgu til, Bu dunyoga bergay hali ko‘p daho”.

“Qoraqalpoq daftari” Mirtemir ijodidagina emas, butun o‘zbek she’riyatida ham qardosh xalqlar hayoti yoritilgan eng yaxshi she’riy turkumdir. “Amu qirg‘oqlari”, “Olim”, “Ko‘l bo‘yida”, “Barqut”, “Sahroyi” she’rlarida obrazlar o‘ziga mos detallar topilgani bilan ajralib turadi. “Hodisa”, “Yangajon” asarlari xalqona yumorga yo‘g‘rilgani, yengil hazilning go‘zal poetik shaklda berilgani bilan o‘quvchi diqqatini tortadi. Turkumning ajoyib she’rlardan iboratligini ta’minlagan asosiy omil shoirning qoraqalpoq xalqi hayotini yaxshi bilgani, uning ruhiyatidagi eng sirli, yashirin jihatlarni nozik ilg‘ay olganidir.

Mirtemir she’rlarini o‘qishli qilgan omil ularda inson tuyg‘ularining yuksak badiiy mahorat bilan ko‘rsatib berilganidadir. Chunki tuyg‘u hech qachon eskirmaydi. Bir umr she’r ishqida yashab, she’r ishqida yongan shoir eskirmas, mangu qadriyatlarni o‘lmas poetik yaratiqlarga aylantira olgan edi.

JADIDSHUNOSLIK

Kiprigi bilan ilm qudug‘ini qazigan OLIM

Chin ma’nodagi fidoyi tadqiqotchi, “ilmdan boshqasi savatdagi suv” shiorini shogirdlariga, yaqinlariga, farzand-u nabiralariga hamisha uqtirib kelgan Sherali Turdiyev o‘zbek jadid adabiyoti tarixining ko‘p sirli qulflariga kalit topa olgan olim edi. U o‘zining ilmiy ijod yo‘lida o‘tkir qalami bilan jonkuyar, izlanuvchan va haqiqatgo‘y tadqiqotchi bo‘lib tanildi.

1947-yildan to umrining poyonigacha o‘zbek hamda qardosh xalqlar matbuotida ko‘plab ilmiy maqolalari, taqriz va tarjimalarini e’lon qildi.



U o‘z vaqtida “O‘zbek adabiyotining 20-yillardagi hikoyachiligi” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. Shuningdek, jadid adabiyoti, jadidlar tarixi, qatag‘on qurbonlarining hayot va ilm yo‘li, qismati borasida kiprik bilan ilm qudug‘ini qazib, adabiyot muhiblariga “obi hayot” taqdim etdi. Olim nodir fondlarda umrini o‘tkazdi. O‘zbekistondan tashqari Germaniya, Avstriya, AQSh, Turkiya, Yaponiya kutubxona hamda arxivlarida tadqiqotlar olib bordi. Xususan, 20-yillarda xorijga o‘qishga yuborilgan talabalar taqdiri bilan qiziqdi. Qatag‘onga uchragan juvonmarg ziyolilarning izlarini izladi va oila a’zolarini topib, ular bilan suhbatlar uyushtirdi. Shu tadqiqotlarning bir qismi o‘laroq “Ular Germaniyada o‘qigan edilar” kitobini yozdi. Bu kitob vaqtida juda mashhur bo‘lib ketdi. O‘zbek kinoijodkorlari ushbu noyob ilmiy tadqiqot asosida ikki seriyadan iborat hujjatli film ham yaratdilar.

Bir holatga hayron qolaman: bugun turli adabiy-ilmiy anjumanlarda ma’ruza qilgan ba’zi tadqiqotchilar, shu mavzuda badiiy asarlar yaratayotgan yosh adiblar o‘z “topilma”larini bayon qilishadi, “Ular Germaniyada o‘qigan edilar” kitobidan unumli foydalanishadi-yu, biroq afsuski, zahmatkash olim Sherali Turdiyevni eslashni istashmaydi. Holbuki, ilm xolislik va adolatni talab qiladi.

Bir necha yil oldin akademik Naim Karimov domla bilan suhbatlashganimda: “Sherali do‘stim juda kamtar inson edi. Shunday holatlar bo‘lardi, u kelib: “Qara, Naim, mana bu muallif mening falonchi nashrimdagi fikrlarni shundaygina olgan-u o‘z familiyasi bilan chop qilgan”, deb aytardi. “Bunga chora ko‘rish kerak” desam, “Ha, mayli, kerak emas. Bir kun insofga kelib qolar...”, deb qo‘l siltab qo‘yardi. Biror ilmiy asar, maqola yozishda kimdir yoki kimlardir bilan hammuallif bo‘lsa, albatta, o‘z ism-sharifini eng oxiriga tirkar edi. Shunda men “Hammasini deyarli o‘zing yozding-ku” deb tanbeh bersam, parvo ham qilmasdi...”. Naim Karimov domla Sherali Turdiyevni zahmatkash, ziddiyatlarni xushlamaydigan, juda muloyim, halim va kamtar inson sifatida yodga olgani hamon esimda.

Balki, Sherali Turdiyevga bunday go‘zal insoniy fazilatlar otasidan o‘tgan bo‘lsa kerak. Dehqonchilik, kosiblik ilmining ustasi bo‘lgan Turdiboy ota haqida: “Dadam juda sodda va xokisor bo‘lib, masjidga yangi kalish kiyib borib, eskisiga alishtirib kelar edi”, degan ekan Sherali Turdiyev.

Olim zoti uchun halollik va sofdillik fazilati juda muhim. “Olim bo‘lish oson, odam bo‘lish qiyin”, degan hikmatni xalqimiz bejiz aytgan emas. Sherali Turdiyevning qizi, taniqli bolalar shoirasi Kavsar Turdiyeva “Otam – ustozim” maqolasida yozadi: “Otam agar biror inson ko‘chada qolib, yotishga joy topolmagan bo‘lsa, uyga olib kelar edilar. Zarurati bo‘lsa, musofirning qo‘liga pul tutqazib, ovqatlantirib keyin jo‘natardilar...”.

Sherali Turdiyev begunoh insonlarning xalq dushmanlari sifatida qoralangani va qatl qilinganiga befarq qarab tura olmadi. Arxivlardan haqiqat izladi; umrining ko‘p yillarini tarixiy manbalar ustida ishlash bilan o‘tkazgan olimning “Sherali arxiv” laqabi ham bor edi. Olimning izlanishlari Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyini tashkil etishda, uni eksponatlar bilan boyitishda juda qo‘l keldi.

Olim respublika va xalqaro anjumanlarda ishtirok etib, ilm ahli bilan hamisha do‘stona aloqalar o‘rnatdi. Uning shaxsiy arxivida mingga yaqin maktub, tabriknoma va taklifnoma, iltimos xatlari va tashakkurnomalar bor. Yozishmalarda xorijlik olimlar, tadqiqotchilar Sherali Turdiyevdan asosan arxiv manbalari, jadidlar mavzusiga tegishli fotosurat nusxalari, o‘z asarlariga taqrizlar yuborishni iltimos qilgan. Iltimosnomalar bilan birga ilmiy simpozium, anjuman, seminar, forumlarga taklif xatlari ham juda ko‘p. Sherali Turdiyevning ilmiy tadbirlar o‘tkazilishida, kitoblar yozishda, muzeylarni boyitishda qo‘shgan beqiyos hissasi e’tirof etilgan tashakkur xatlari yozishmalar ichida miqdor jihatidan eng salmoqlisidir.

Adabiyot, tarix, tarjimashunoslik sohalarining muxlisi va ma’lum ma’noda “kaliti” bo‘lish bilan birga, olim inson sifatida benazir va ardoqli edi. U juda samimiy do‘st, ustozlariga sadoqatli shogird, izdoshlariga ustoz, farzandlariga uzoqni ko‘ra biluvchi maslahatgo‘y mehribon ota, nabiralariga sevimli va rahnamo bobo edi. “Yordamini, vaqtini, ilmini hech qizg‘anmaydigan olijanob inson edi. Mehnatkash, kamtarin, xokisor, oddiy va buyuk edi...”

Sherali Turdiyevni tanigan-bilganlarning barchasi bu benazir inson haqida aynan shu fikrni takror va takror ta’kidlashadi.

Hulkar TURDIYEVA,
filologiya fanlari nomzodi,
dotsent

Unutilmas xotiralar

Sherali Turdiyev bilan 1994-yil yoz oylarida uchrashgandim. Men avvaldan olimning ilmiy maqolalari bilan tanish edim. Shuning uchun bu uchrashuv meni juda quvontirdi. Sherali aka bilan maktublar orqali ma’lumot va fikrlar almashib turardim. Menga juda ko‘p manbalar taqdim qilgan. Sherali akaning maslahatlari ilmiy tadqiqotlarim uchun bebaho hissa bo‘lib qo‘shilgan.

U kishi juda mehribon, kamsuqum, olijanob inson edi. Bilganlarini fidoyilarcha beminnat ulashar va o‘tkir zakovatlari bilan biz xorijlik tadqiqotchilarning mavzu borasidagi tasavvurimizni yanada kengaytirgan. Sherali aka meni xuddi o‘zining shogirdi kabi qanotlari ostiga oldilarki, bu muruvvatni hech qachon yodimdan chiqarmayman.

Ustoz kutubxona va arxivlarda manba bilan ishlashda ulkan tajribaga ega bo‘lib, ilm ummonidagi gavharlarni men bilan va shubhasiz boshqa hamkasblari, izdoshlari bilan teng baham ko‘rar edi.

Adib XOLID,
jadidshunos, professor (AQSh)



Dorilfunun darslari kechki 9-10 larda tugardi. Yotoqxonaga keldik deguncha Sherali ko‘rinmay qoladigan bo‘ldi. Avvaliga kursdosh do‘stlar uning ko‘rinmay qolishiga hayron bo‘lishdi, keyinchalik o‘rganib ketdik. Bir gal undan so‘rasam, bunday dedi: “Sizga aytib yuradigan 20-yillar jumbog‘ining yechimini topdim. Yotoqxonamiz yerto‘lasiga keraksiz asarlar – o‘sha davr ro‘znoma va oynomalari keltirib tashlangan ekan, bularni yoqib yuborishmasidan avval o‘rganib olay, deyapman”.

Urushdan keyingi qiyinchilik yillari edi. Dorilfunun hovlisidagi bufetda Asya degan ayol talabalarga ro‘yxat bilan ikki yuz grammdan non berardi. Keyinchalik bilsak, Sherali o‘sha nonni yemasdan har kuni, yerto‘laning eshik-qopqog‘i ustida o‘tiradigan kampirga keltirib berarkan. Haftasiga o‘n so‘mdan pul ham berib turarkan. Kampir nonni olganidan keyin yerto‘la chirog‘ini yoqib, Sheralining kirishiga ruxsat etarkan. Yana eshikni qulflab, ustiga kursisini qo‘yib, paypog‘ini to‘qib o‘tiraverarkan. Yerto‘lada Sherali “Sharq haqiqati”, “Inqilob”, “Tong” degan nashrlarni varaqlab, o‘zi izlagan davrga oid maqola va badiiy asarlarni mutolaa qilardi...

Olim QO‘CHQORBEKOV,
Sherali Turdiyevning kursdoshi,
taniqli jurnalist va yozuvchi

1992-yil, dekabr oyining oxirgi kunlari edi. “Sharq yulduzi” ilmiy-adabiy jurnalining tahrir hay’ati a’zolaridan biri Ortiqboy Abdullayev meni Sherali Turdiyev bilan tanishtirdi. O‘sha kundan boshlab, qachon Toshkentga safar qilsam, Sherali aka bilan, albatta, uchrashar edim. U hamisha mening Fitrat, Cho‘lpon va boshqa ma’rifatparvar jadidlar to‘g‘risidagi savollarimga batafsil javob berar, shuningdek, muhim ma’lumotlar va bebaho manbalarni taqdim qilardi. Masalan, Abdurauf Fitratning “Munozara”, “Adabiyot qoidalari”, Cho‘lponning “Tong sirlari” kitoblaridan nusxalarni ustozdan olganman. Jadidlik harakati va adabiyoti tadqiqotiga o‘zini beminnat bag‘ishlagan samimiy olim sifatida bilaman Sherali akani.

Sherali Turdiyevning yuzlab qator ilmiy ishlari ichida “Среднеазиатские татары: роль и значение в культурной и политической жизни Туркестана первой четверти XX в.” (Казань: Панорама-Форум, 1997) nomli maqolasi hamda “Ular Germaniyada o‘qigan edilar” kitobini juda katta qiziqish bilan o‘qiganman. Muallifning o‘zi ularni menga dastxati bilan sovg‘a qilgan.

Sherali Turdiyevning Sovet davridagi jadid ma’rifatparvarlarining hayoti, ijodi va faoliyatiga bag‘ishlangan chuqur izlanishlarini qadrlayman. Qatag‘on qurbonlari haqidagi faktlarni aniqlash, ularning merosini tiklashda Sherali Turdiyevning o‘rni beqiyosdir.

Hisao KOMATSU,
Tokio universiteti professori



Tarjima – ikki dillar payvandi

Boshlanishi 1-sahifada.

Qaror negizidagi “o‘zbek adabiyotining nasriy asarlaridan xorijiy tillarga qilingan eng yaxshi tarjima; o‘zbek adabiyotining she’riy asarlaridan xorijiy tillarga qilingan eng yaxshi tarjima; o‘zbek bolalar adabiyoti namunalaridan xorijiy tillarga qilingan eng yaxshi tarjima; xorijiy tillarda yaratilgan nasriy asarlardan o‘zbek tiliga qilingan eng yaxshi tarjima; xorijiy tillarda yaratilgan she’riy asarlardan o‘zbek tiliga qilingan eng yaxshi tarjima; xorijiy tillarda yaratilgan bolalar adabiyoti namunalaridan o‘zbek tiliga qilingan eng yaxshi tarjima” kabi yo‘nalishlar bo‘yicha tarjimonlarni taqdirlab borish ko‘zda tutilgani tillarni puxta bilguvchi ellararo ko‘prik vazifasini o‘tovchi mutarjimlarga kuch-g‘ayrat beradi. Zero, rag‘bat ijodkorga qanot bag‘ishlaydi.

Alohida ta’kidlash joizki, qarorda bolalar adabiyotiga berilgan yuksak e’tibor – bu aynan bugunning maqsad va muddaosidir. Chunki bolaning adabiy ta’limi, qalbining ma’naviy-ruhiy tarbiyasi bevosita irodasi bukilmas shaxs kamolotiga daxldor masaladir.

O‘zbek adabiyoti namunalarini xorij tillariga va dunyo adabiyotining nodir namunalarini o‘zbek tiliga tarjima qilish ikki jihatdan qiymatli. Birinchidan, ming yillik muhtasham adabiy tariximizning go‘zal namunalari dunyoning turli el-elatlari o‘quvchilari qo‘liga yetib boradi. Dunyo o‘quvchisi bizning adabiy tafakkur tarzimiz, jahon adabiyoti durdonalari bilan bir qatorda turadigan bebaho asarlarimiz mohiyati bilan tanishadi. Bu sohada faoliyat olib borayotgan fidoyi, o‘zbek adabiyotining chin do‘stlari, tabiiyki, qadrlanadi. Ikkinchidan, dunyo adabiyotidagi eng nodir asarlarning o‘zbekona hayot tarzimizga, yoshlarning xulq-atvoriga muvofiq keladiganlarini tanlab, o‘zbek tiliga tarjima qiladigan soha mutaxassislarining xizmatlari ham munosib taqdirlanadi. Bu sohada o‘zbek tarjimonlari, adabiyotshunoslarida muayyan tajriba borligi sir emas.

Yuqorida eslatilgan mumtoz adabiyot tarixida o‘tgan Ogahiydek allomalar amalga oshirgan tarjima ishlari keyingi avlodlar tomonidan davom ettirildi. Jadidlar zamonasida Ajziy, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Sanjar Siddiq, Saidg‘ani Valiyev, Fozilbek Otabek o‘g‘li kabi bir qancha adiblar tarjima bilan shug‘ullanishdi. Bugungi “Jahon adabiyoti” jurnali zimmasiga olib, ado etayotgan vazifani o‘sha paytda “Yer yuzi” jurnali bajardi. XX asrning 20-yillarida G‘arb va Sharq adabiyoti namunalaridan qilingan tarjimalar ayni jurnalda nashr bo‘ldi. Deylik, Anton Chexovdek so‘z ustasining bitta “Buqalamun” asarining uchta tarjimasi bir zamonda maydonga kelganidan xabarimiz bor. Darvoqe, Poelo Koeloning “Alkimyogar” asarini yangi zamonda uch tarjimon o‘z uslubi va bilim darajasiga mos ravishda o‘zbek tiliga o‘girdi.

Shu e’tibordan dunyo adabiyoti namunalarini tarjima etish bilan birga ularni qiyoslab o‘rganish jarayonida ayni sohaning muhim bir ilmiy-nazariy tadqiqotlar qirrasi, ya’ni tarjimashunoslik yo‘nalishi ham rivoj topadi. Tarjima asarlari, tarjimonlar, tarjimashunoslik – bular o‘zaro biri birini taqozo qiladigan tushunchalardir. XX va XXI asr o‘zbek tarjima maktabining ulkan, tajribali, mohir tarjimonlari, shuningdek, bu sohada o‘z maktabiga ega yetuk mutaxassislari bor.

Yaqinda bir xalqaro anjumanda ispaniyalik er-xotin bilan tanishib qoldim. Eri nemischada menga o‘xshab bazo‘r gapirar ekan. Ular bizning adabiyotdan bir og‘iz so‘zlagan bo‘ldi. Men Migel Servantesning “Don Kixot” asarini o‘qiganimni eslatganimda ular “ha, shundaymi” degan ma’noda bosh irg‘ab qo‘yishdi. Iste’dodli shoir va mutarjim Shavkat Rahmon tarjimasida Garsiya Lorka, Rafael Alberti she’rlari o‘zbek tiliga o‘girilganini aytganimda ularning hayrat va quvonchdan ko‘zlari chaqnadi. To‘g‘risi, imo-ishora yo‘sinida, ammo asosan biz adabiyot tilida, tuyg‘ular tilida ancha dildan suhbatlashdik.

Dunyo adabiyotidan barcha adabiy tur va janrlarni qoyilmaqom qilib o‘zbek tiliga o‘girgan tarjimonlarni bugun eslash, ularning tajribalaridan, so‘z yasash, so‘z izlash va so‘z qo‘llash mahoratidan o‘rnak olmoq lozim.

Zamona zayli bilan gugl-tarjimon paydo bo‘lgan bugungi ilg‘or texnologiyalar davrida tarjimonlik ishida yuzaki, oson va soxta yo‘l tutish kitob bilan oshno bo‘lgan ziyoli odamning sha’niga aslo munosib ish emas. O‘zbek tarjimonlari xizmati tufayli yaqin tarixda jahon adabiyoti durdonalari (JAD) ruknida ko‘plab kitoblar nashr bo‘lgani barchaga ma’lum. Yaqinda “Turkiy adabiyot durdonalari”ning 100 jildligi bosilib chiqib, qardoshlarimiz kutubxonalariga ham yetib bordi. Bu muhtasham ma’naviy xazina o‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotidan tanlangan asarlar bilan bir qatorda qoraqalpoq, turk, ozarbayjon, qozoq, turkman, qirg‘iz, venger adabiyotidan saralab olingan asarlar tarjimalari evaziga maydonga keldi.

Bir so‘z bilan aytganda, adabiy tarjimaga doir tarixiy qaror tarjimonlar faoliyatining rivoji, tarjimashunoslik ilmining taraqqiyoti, eng muhimi, badiiy so‘z san’ati vositasida dunyo xalqlari o‘rtasidagi adabiy aloqalar, o‘zaro do‘stlik va hamkorlik rishtalarining mustahkamlanishida ulkan ahamiyat kasb etadi.

Bahodir KARIM

IBRAT

So‘nggi qo‘ng‘irog‘i chalinmagan maktab

Taraqqiyotning asosini avvalo ilm-ma’rifat, so‘ngra ishtiyoq va harakat tashkil qiladi. Jamiyat va davlatning rivoji, uning ertangi kuni ta’lim-tarbiya sifatiga bog‘liq.

Prezidentimizning yaqinda maktab bitiruvchilariga yo‘llagan tabrigida katta hayot ostonasida turgan o‘g‘il-qizlarimizga yuksak ishonch bildirilib, quyidagi fikrga alohida e’tibor qaratilgan: “Jonajon Vatanimizning kelajagi, uning taqdiri va taraqqiyoti bugun shinam sinfxona va auditoriyalarda qunt bilan ta’lim olayotgan yoshlarning qo‘lida. Ular ertaga O‘zbekistonni yanada kuchli, rivojlangan va baxtli davlatga aylantirish uchun o‘zlarining bor bilimi, iqtidori va kuch-g‘ayratini safarbar qilsa, ko‘zlagan maqsadlarimizga, albatta, erishamiz”. Bu so‘zlar nafaqat yosh avlod uchun, balki ularning ustoz-o‘qituvchilari uchun ham g‘oyat ahamiyatlidir.

XXI asr axborot va texnologiyalar davri sifatida baholanmoqda. Istaymizmi-yo‘qmi, bugun zamondan orqada qolmaslik uchun har jabhada shijoatli bo‘lishga majburmiz. Xususan, ilm olish va ilm berishda ham. O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi qoshidagi “Ziyo-zukko” umumta’lim maktabi direktori Nargiza Qamariddinova bilan bu borada fikrlarimiz bir joydan chiqdi.



Biz maktablar faoliyatiga oid hikoyalarimizni davom ettirish maqsadida bu gal ana shu maskanga yo‘l oldik. 650 nafardan oshiq o‘quvchiga nafaqat o‘rta ta’lim, balki o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtida tahsilni davom ettirishi uchun yuqori darajada bilim berish yo‘lga qo‘yilgan ushbu nufuzli maktabda yozgi imtihonlar qizg‘in davom etayotgan ekan.

Avvalo, bu yerda barcha ustoz va murabbiylar kishi ruhiyatiga ko‘tarinkilik bag‘ishlovchi och binafsharang tusli maxsus engil-boshda ekanligi e’tiborimizni tortdi. Shuning o‘ziyoq maktabda o‘ziga xos yangilanish muhiti borligidan dalolat beradi.

“Ziyo-zukko” umumta’lim maktabi rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan kampus, ya’ni ta’limning uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash tizimida tashkil etilgan bo‘lib, bolani maktabdan litseyga va undan oliy ta’limga tayyorlab borishi bilan ham boshqa nodavlat ta’lim muassasalaridan ajralib turadi. Bu yerda ta’lim milliy qadriyatlarimiz asosiga qurilgan bo‘lib, o‘quvchilarning bilim darajasi maktab muassisi hisoblangan Xalqaro islom akademiyasi olimlari tomonidan muntazam kuzatib boriladi.

Maktabda o‘quvchilarning kun tartibi qat’iy nazoratga olingan. Kunning birinchi yarmida davlat ta’lim standartlari va dasturlarda belgilangan talablar asosida o‘quv fanlaridan mashg‘ulotlar olib boriladi. Keyingi bosqich to‘garaklar va o‘quvchilar qiziqqan fanlar bo‘yicha qo‘shimcha darslarni o‘z ichiga oladi. Ustozlarning aytishicha, o‘quvchilar to‘garaklarning hammasiga qatnashishga harakat qiladi. Shuningdek, ularni sport turlariga qamrab olish masalasiga ham jiddiy e’tibor qaratiladi. Jumladan, aql gimnastikasi bo‘lmish shaxmat mashg‘ulotlari kun tartibidan doimiy o‘rin egallagan.

Bundan tashqari, mahoratli ustozlar rahbarligidagi adabiyot, tasviriy san’at, musiqa, xattotlik, tikuvchilik, texnologiya, pazandalik to‘garaklari ham doimiy ishlab turibdi. O‘quvchilarda ilm olish bilan birga kasb-hunarga ham ishtiyoq uyg‘otishga alohida e’tibor qaratiladi. Rus, ingliz, arab tillarining chuqurlashtirilgan tarzda o‘qitilishi bolalarning xorijiy tillarga oid bilimlarini yanada mustahkamlash imkonini bermoqda.

“Biz o‘qigan davrlarda ham maktabda shunaqa imkoniyatlar bo‘lganida qaniydi”, degan gapni katta avlod vakillaridan ko‘p eshitamiz. To‘g‘ri, bugungi yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlarga kishining havasi keladi. Ammo har davrning o‘z talabi bor. Bugunning odami kechagidan ko‘ra ko‘proq bilim olishi, o‘z ustida tinimsiz ishlashi shart. Maktab o‘quvchiga fundamental bilim beradi, hayotda esa ana shu bilim bilan kifoyalanib bo‘lmaydi. Oddiy misol, kechagi harf teradigan mashinkalarga bugun ehtiyoj yo‘q. O‘z-o‘zidan, “mashinistka” kasbi ham barham topdi. Shiddatli asrimiz ustozlardan o‘quvchini hech qachon bilim olishdan to‘xtamaslikka o‘rgatishni ham talab etmoqda. Boz ustiga, bolalarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish majburiyati ham kundan-kunga oshmoqda. Qaysi ma’nodaki, kerakli ma’lumot qidirib kompyuter klavishini bosar ekan, u o‘zi uchun mutlaqo keraksiz, mentalitetimizga zid ma’lumotlar bilan ham to‘qnash keladi. Bola bunday xatardan xalos bo‘lishi uchun unda aynan mafkuraviy immunitet rivojlangan bo‘lishi zarur. “Ziyo-zukko” o‘qituvchilar jamoasining bosh maqsadi esa o‘z o‘quvchilarini “halollik va ma’rifat vaksinasi bilan emlash” orqali har tomonlama komil shaxslarni tarbiyalashdan iboratdir.

– O‘quvchilarimiz ongiga singdirishimiz lozim bo‘lgan eng dolzarb masala bu – ularda ilmga ishtiyoq hissini kuchaytirishdan iborat, – deydi maktab direktori Nargiza Qamariddinova. – Ilmli odam hamisha halol yashashga intiladi. Hozirgi kunda tarbiya asosiy masala bo‘lib qoldi. Men bolalarimiz dunyo sahnida nafaqat intellektual salohiyati, balki axloqi, odobi bilan ham dong taratishini xohlayman. Bu yo‘lda biz ota-onalar va O‘zbekiston islom akademiyasi bilan hamkorlikda faoliyat olib boryapmiz. O‘quvchining qaysi fanga layoqati kuchli ekaniga qarab, ular bilan induvidual tarzda ishlayapmiz.

“Ziyo-zukko” maktabida “Kichik akademiklar” klubi ham tashkil qilingan. Klub a’zolari o‘zlarini qiziqtirgan biror mavzu yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borib, to‘plagan ma’lumotlari yoki ixtirolariga oid taqdimotlar o‘tkazishadi. Boshlang‘ich ilmiy ishlarini 10-12 daqiqa davomida himoya qilishadi. Akademiyaning ilmiy xodimlari ekspert sifatida o‘quvchilarning tadqiqotlarini muhokama qiladi. Taqdimotlar, avvalo, o‘quvchining nutq madaniyatini yaxshi o‘zlashtirishi, fikrini bemalol bayon etish ko‘nikmasini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan ham ahamiyatlidir. Kichik akademiklarga, albatta, diplomlar topshiriladi va “Yilning eng yaxshi o‘quvchisi” nominatsiyasiga nomzod ham aynan ularning orasidan tanlab olinadi va mukofotlar bilan rag‘batlantiriladi.





– Hozirgi yoshlarning intellektual salohiyati baland, – deydi suhbatimizga kelib qo‘shilgan Xalqaro islom akademiyasining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori Zohidjon Islomov. – Ayniqsa, “Ziyo-zukko” maktabi o‘quvchilarining ilmga ishtiyoqi o‘zgacha. Ular orasida futbol o‘ynaydigan robot yasagan kashfiyotchilar bor. Kechagi taqdimotda 7-sinf o‘quvchisi yurtimizda turistik madaniyatni rivojlantirishga oid ishini himoya qildi. Uning fikrlari olim sifatida meni juda hayratlantirdi. U faqat ilmiy asarlar va darsliklar orqali emas, o‘zining shaxsiy kuzatuvlaridan ham unumli foydalangan, taqdimot davomida katta-katta olimlarimiz kabi mulohaza yurityapti. Bir narsaga xursand bo‘laman, maktabning har bir o‘quvchisi “ilm xastaligi”ga chalingan. Bu maktabning yurtimizda ta’limga berilayotgan e’tibor ortidan malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonida o‘z o‘rni, o‘z mavqei bor.

Darhaqiqat, bugun o‘quvchiga chuqur va sifatli bilim berish bilan birga ularga qonunlar, odob-axloq normalari, din-u diyonat va ma’naviyatni maktabdan boshlab puxta o‘rgatish nihoyatda muhim masaladir. Ziyoli, o‘qimishli va tarbiyali insonlardan yomonlik chiqmaydi. Bilimsiz kishining ko‘ngli esa buzuq ishlarga, xurofotga moyil bo‘lishi sir emas. “Ziyo-zukko” maktabining yana bir e’tiborga molik tomoni, bu yerda ta’lim va tarbiya ishlariga xuddi “siam egizaklari” kabi chambarchas bog‘liq masala sifatida qaraladi.

E’tiborli jihati, maktab moliyaviy jihatdan o‘zini o‘zi to‘liq ta’minlaydi. Bu yerda boshqa umumta’lim maktablariga nisbatan bolalar bilan individual ishlash uchun ko‘proq imkoniyat mavjud. O‘quvchi “Ziyo-zukko” maktabida nafaqat o‘qiydi, balki yashaydi ham. Chunki ular ertalab darsga kelib, oqshomda uyiga boradi, bu orada uch mahal ovqatlanadi, uy vazifalarini tayyorlaydi. Boshqacharoq aytganda, maktab uning ikkinchi uyiga aylanadi. Shu bois ustozlar o‘quvchilariga deyarli ularning ota-onasi darajasida munosabatda bo‘ladi. Bola ham ustozni o‘ziga yaqin tutadi. Biz “Ziyo-zukko” ta’lim maskanida ana shu yaqinlikni his etdik. Maktab rahbarining loyihasini himoya qilayotgan o‘quvchini savolga tutganida “Fikrimni oxirigacha aytib olishimga izn bering, so‘ng, albatta, savolingizga javob beraman”, degan gapidan xursand bo‘lishi, “O‘quvchim o‘z fikriga ega, birovning bir og‘iz tanbehi bilan sinib, mahzun tortib qolmaydi”, deya holatni ijobiy qabul qilishi ham maktabda hur fikrli yoshlar tarbiyalanayotganidan darak berdi.

Suhbatni o‘quv yili yakunida imtihonlar bilan bog‘liq masalalarga burar ekanman, ba’zi maktablarda hamon davom etayotgan ota-onalardan “pul yig‘ish” muammolari to‘g‘risida so‘radim.

– Bu kabi masalalar bekorga mamlakat miqyosida ko‘tarilmadi, – deydi Nargiza Qamariddinova. – Haqiqatan ham, imtihon oldidan mayda-chuydalarni ro‘kach qilib ota-onalardan pul so‘rash hollari hamon uchrab turibdi. Bu borada haddan oshayotganlar ham yo‘q emas. Men rahbarlik qilayotgan maktabda bunaqa gap yo‘q deb bemalol ayta olaman. Chunki bizda ta’lim pullik va to‘qqiz oy uchun to‘lovni amalga oshirgan ota-onalar qo‘liga shartnoma nusxasi beriladi. Shartnomada bu mablag‘ nimalarga sarflanishi aniq ko‘rsatilgan va boshqa biror vaj bilan ulardan pul talab qila olmaymiz. Imtihonlar – ko‘ngilochar tadbir emas. Bu jarayon uchun o‘quvchilar jiddiy tayyorgarlik ko‘rishlari kerak. O‘quvchilarimiz ham, ota-onalarimiz ham bilim olishdan boshqa narsalar haqida bosh qotirishlarini istamayman.

“Ziyo-zukko” maktabidan chiqa turib, gazetamizga surat olish bahonasida binoni aylandik. Zinalarga matematik qoidalar, ko‘paytiruv jadvali, harflarning boshqa tillarda o‘qilishi tasvirlari tushirilgani zavqimizni oshirdi. Bu tasvirlarga ko‘zi tushgan odam beixtiyor ularni ichida takrorlay boshlaydi. Bu ham har qadamda o‘quvchi bilimini mustahkamlash yo‘lidagi bir tajriba, aslida.

O‘quvchilar bilan ishlayotgan ilg‘or ustozlar, shavq bilan shaxmat surayotgan o‘g‘il-qizlar... Umuman olganda, kechagina bu yerda o‘quv yilining so‘nggi qo‘ng‘irog‘i jaranglaganiga ishongisi kelmaydi kishining. Chunki maktabda hayot qaynayapti, o‘g‘il-qizlar ko‘zida esa ilmga tashnalik, jonajon maktabiga mehr mujassam. Ularni kuzata turib, bu bolalar ta’til paytida uylarida ham shu maromda o‘qish-o‘rganishda davom etadi, degan komil ishonch tuyasan kishi. Zero, fransuz adibi Emil Zolya aytganiday, umrning butun ma’nosi mavhumlikni to‘xtovsiz zabt etish, tobora va ko‘proq bilishga intilishdan iboratdir.

Muhayyo PIRNAFASOVA

FIKR

SONIYALAR SO‘ROG‘I

Bahordan kech kuzgacha har kuni ertalab turib, torgina hovlimizdagi dasturxondekkina bog‘chada o‘sayotgan ekinlarga boqaman. Har kuni o‘zgaradi. O‘sadi. Ulg‘ayadi. Kechagina ko‘m-ko‘k bo‘lgan gilos qizara boshlaydi. Erta-indin qip-qizil bo‘lib pishadi. Kecha gullagan bodringcha bugun gugurt donasi bo‘yi bo‘lib qoladi. Besh-olti kun deganda uzadigan holatga keladi. O‘tgan hafta kechpishar husayniga ertapishar Namangan chillakisini payvand qilgan edim. Bugun qarasam, bargchalar chiqarib, ko‘kara boshlabdi.

Olmalarni aytmaysizmi? Kun sayin, soat sayin, daqiqa sayin yiriklasha boryapti. Tanachaning uchiga tukkanlari og‘irlashaverganidan shoxni yoyga o‘xshab qiyshaytiribdi. Oxiri kecha, ilojini topib, ayri qo‘ydim.

Tabiat bir soniya ham jim turmaydi.

Shunday ekan, nega men soniyalarim, daqiqalarim, soatlarim, kunlarim, haftalarim, oylarimni... bekor o‘tkazishim kerak?!

Ko‘ngil: “Yoz, yoz, yoz!” deydi. Yozmasligimga qo‘yadigan xayoli yo‘q uning.

Kompyuter qarshisiga o‘tirganimda o‘ng qo‘limdagi bir kitob javonida faqat o‘zimning kitoblarim yoxud mening ham ozmi-ko‘pmi ishtirokim bo‘lgan nashrlar o‘rin olgan. Javonning bo‘sh yeri qolmagan. Shularga qarab-qarab yozaman. Qaraganim sari yozgim kelaveradi.

Axir, kitobning umri insonning umridan uzoqroq bo‘ladi-ku.

Lekin...

Ana shu “lekin”i qiynaydi-da kishini.

Nimagadir: “Hech kim o‘qimasa ham, mayli, baribir, chiqaraman”, degan aqida bilan kitob bitayotganlar ko‘payib ketganday tuyuladi. Siz ham shuni sezasizmi?

Yo‘q. “Shu kitobim chiqsa, ilmiy daraja yo unvonim ko‘tariladi, maoshimga falon foiz qo‘shiladi”, deb yozish haqiqiy ijod emas. Omadingizni bersin – kitobingiz bosilgani uchun ilmiy daraja yo unvoningiz ko‘tarilsin, maoshingiz oshsin, albatta. Lekin kitob qurg‘ur, avvalo, odamlar o‘qishi uchun yozilishi lozim-da.

To‘g‘ri, kimdir: “Hozir kitob o‘qish rusum bo‘lmay qoldi”, deb hisoblasa, hisoblayversin. Axir, kimsan Alisher Navoiydek buyukdan-buyuk sohibi qalamning asarlari hayotligi mahalida necha nusxada tarqalgan? Barmoq bilan sanarli nusxadagina kitobat qilingan. Asrlar o‘tib, o‘qildi-ku! O‘qilyapti-ku! O‘qilaveradi ham.

Fikrlash – insongagina berilgan buyuk ne’mat. Modomiki, kishining o‘zi ham o‘tkinchi bo‘lsa, yozib qoldirmasa, hatto, tillodan qimmat fikri ham havoga uchadi-ketadi-ku.

Odam bolasi uchun umrni uzaytirishning yozishdan boshqa zo‘r yo‘li bo‘lmasa kerak.

Nima dedingiz?

Sultonmurod OLIM,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi



Avloniyning evarasi

Boshlanishi 1-sahifada.

KO‘P VOQEALARDAN BEXABAR EDIM

Ochig‘i, bolaligimda ham, maktabda, hatto institutning birinchi kursida o‘qib yurganimda ham ajdodlarim haqida hech narsa bilmasdim. Hujjatlarimda otam – harbiy, onam – injener deb yozilgandi, xolos. Otamni vafot etib ketgan, deb yurardim. Maktabni bitirib, Politexnika institutiga o‘qishga kirdim. Shu dargohda bir yil o‘qib ham aktrisa bo‘lish orzusidan voz kecha olmadim. Birinchi kursni tugatib, Toshkent teatr san’ati institutiga qayta hujjat topshirdim. Hamma hayron: oilamizda san’atga aloqador odam bo‘lmasa, mendagi bu havas, intilish qayerdan paydo bo‘ldi? Bu yoqda onam, “Artist bo‘lyapsanmi?” deb rosa yig‘lagan.


Teatr san’ati institutida G‘ulomov degan domlamiz bo‘lardi. Xolam Hakima Avlonova pedagogika institutida ishlardi. G‘ulomov domla o‘sha yerda ham dars berar ekan. Xolam u kishiga jiyani ekanimni aytibdi. Domla bir darsda: “Bilasizmi, siz Abdulla Avloniyning evarasisiz. Bu inson o‘zbek teatrining asoschisi bo‘lgan”, deb qoldi. Yo‘q, deb juda hayron bo‘ldim. Uyga qaytgach, bu haqda onamdan so‘radim. Shundagina nima uchun uyimizda Abdulla Avloniyning portreti saqlanishini tushundim.

Ha, u paytlarda odamlar orasida kuchli qo‘rquv bor edi. Shuning uchun ham ko‘p voqealarni yashirishgan. Teatrshunos olim Mamajon Rahmonov, jadidshunos Begali Qosimov kitoblarini o‘qib, katta bobom haqida ancha-muncha narsani bilib olganman. Avloniyning xizmatlarini yuzaga chiqargan Begali Qosimov bo‘ladi. O‘sha davrda Abdulla Avloniy nomidagi malaka oshirish institutida Jo‘ra aka degan kishi direktor bo‘lib, Avloniyga bag‘ishlangan tadbirlarni o‘tkazib turardi. Bu tadbirlarda onam, Hakima opam, Kenja akam, men qatnashardik. Lekin u paytlar hech qayerda “jadid” so‘zi tilga olinmasdi.

HAYRATDAN TUG‘ILGAN SAVOLLARGA JAVOBLAR

Abdulla Avloniyning evarasi ekanimni bilganimdan so‘ng o‘z-o‘zidan ko‘nglimda uning merosiga jiddiy qiziqish va savollar paydo bo‘laverdi. Javobni esa Abdulla Avloniyning ayoli Salomat buvidan, Hakima xolam va onamdan topganman. Aytganicha, Salomat buvim 1971-yili, 90 yoshda olamdan o‘tgan. Buvimdan eshitganlarim shunday boshlanadi: “Abdulla Avloniyning farzandlari 13 nafar bo‘lib, ulardan faqatgina Sora, Karima, Otaliq, Asatillo, Hakima va Kenja yashab qolishgan. Otaliq urushda halok bo‘lgan. Asatillo 1933-yili ichburug‘ kasalligidan vafot etgan. Kenja ismli o‘g‘li esa yirik kimyogar bo‘lib, 70 yil umr ko‘rgan”.

Abdulla Avloniyning bobosi Mirne’matboy Avloniyning Mirobod tumanida joylashgan dala hovlisi o‘g‘illari Abdulla va Mirsiddiqqa meros bo‘lib qolgan. Bu hovli 1991-yili buzilgan. Avloniyning otasi Miravlon dodaning xotini Fotima aya to‘quvchi bo‘lgan. Ular uch farzand ko‘rishgan: Sora, Abdulla, Mirsiddiq. Fotima aya farzandlariga har kuni kechqurun kitob o‘qib berarkan. O‘sha davrda aksariyat ayollar, ayniqsa, jadidlarning ziyoli xotinlari farzandlarini savodxon qilishda katta rol o‘ynagan. Aytishlaricha, Abdulla Avloniy nihoyatda oilaparvar inson bo‘lgan. Farzandlarining sog‘lom o‘sishi uchun hovlisida sport maydonchasi



Suratda: Abdulla Avloniy (birinchi qator, o‘ngdan ikkinchi) o‘qituvchilar bilan birga.

tashkil qilgan. O‘zi ham shu maydonchada shug‘ullangan. 1919-yili, ayni ocharchilik davrida Abdulla Avloniy ko‘chadan kunda-kunora bir kimsasiz bolani yetaklab kelib, qornini to‘yg‘izib, egnini but qilgach, yetimxonaga topshirar ekan. Sora buvimiz Avloniy keltirgan Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanini bolalarga o‘qib berarkan. Bularni menga qizlari Karima opam so‘zlab bergandi.

Salomat buvimizning aytishicha, Abdulla Avloniy kechalari o‘qish, yozish-chizish bilan shug‘ullangan, stolga qo‘yib ketilgan ovqatlar ko‘pincha qo‘l tekkizilmay qolib ketarkan. Avloniy bobomiz 1916-yili “Layli va Majnun” spektaklini sahnaga qo‘yish uchun Ozarbayjondan mashhur aktyor Sidqiy Ruhillo va Zakiy Boyazid degan rejissyorni uyiga taklif qilib, spektaklni o‘z hovlisida sahnalashtirgan. Majnunning otasi rolini Abdulla Avloniyning o‘zi o‘ynagan. Sora buvim esa dadasiga yordam bergan ekan.

TAZYIQ VA TAHQIR

Miravlon dodaning qizi bo‘lmish Sora buvimni 1920-yili Yoqub ismli shogirdiga turmushga berishgan. 1921-yili ularning qizi, Avloniyning nabirasi, ya’ni mening onam – Turg‘unoy dunyoga kelgan. Xorijda o‘qib qaytganlar qo‘lga olinayotganini eshitgan Yoqub buvam 1923-yili Turkiyaga ketadi. Sora buvim va onamni Miravlon bobom o‘z uyida olib qoladi. Chunki Yoqub buvaning oilasida to‘qqizta farzand bo‘lib, Sora buvimni kelinlik uyida qoldirolmasdi. Xullas, onam Turg‘unoy Miravlon bobo-ning qo‘lida katta bo‘lgan. Afsuski, Yoqub buvam Turkiyadan qaytmagan. Onam 13 yoshdaligida Miravlon bobom ham vafot etgan. Eri Turkiyada bo‘lgani uchun Sora buvimni, Yoqub buvamning otasi Fayzi dodani kunda-kunora NKVDda so‘roqqa tutishgan. Fayzi doda kaltaklar zarbidan vafot etadi. Sora buvim ham so‘roqlar natijasida yurak xastaligiga chalinib, 49 yoshda olamdan o‘tadi. O‘sha vaqtda otasini eslolmaydigan yoshda bo‘lishiga qaramay, onam ulg‘aygach, u kishini ham muntazam so‘roqqa chaqirish boshlanadi. Oxiri, “Men, axir, u paytda bor-yo‘g‘i ikki yoshli go‘dak bo‘lganman. Bu yoshda men nimani ham bilardim? Nega meni buncha qiynaysizlar?”, deb o‘kirib yig‘laganidan so‘ng onamni tinch qo‘yishgan. To‘g‘ri, keyinchalik Yoqub dodamiz sovg‘a-salom jo‘natib turgan, lekin uydagilar bizning tinchimizni o‘ylab birortasini ham olishmagan. 60-yillarda onamni tergov idorasiga chaqirtirib: “Qirimning falon joyiga borasan, o‘sha yerda ering bilan uchrashasan”, deb Yoqub otamning xatini ko‘rsatishadi. Lekin onam bormaydi. Chunki bu uchrashuv yaxshilik keltirmasligini idrok etgan.

KUTILMAGAN VOQEALAR

Taqdir deganlari sir-sinoatlarga boy. Sora buvim olamdan o‘tgan yili Yoqub buvam Turkiyada qayta uylangan. Keyingi ayoli Fahomatxonim bilan nikohidan bir o‘g‘il ko‘rgan va ismini Oltoy deb qo‘ygan.

Xo‘sh, biz bularni qayerdan bilamiz? 1991-yili O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, rasmiy tashrif bilan Turkiyaga borgan delegatsiya tarkibida teatrimizning atoqli aktyori, rahmatli Zikir Muhammadjonov ham bo‘lgan. Onam Yoqub dodamning bir dona suratini saqlab yurardi. Zikir akaning Turkiyaga ketayotganini eshitib, darak topish umidida shu suratni berib yuborishimni so‘ragandi. Safar rasmiy bo‘lib, uch kunda tugagani uchun Zikir aka biror narsani aniqlashga ulgurolmagan. Safardan qaytgach: “Gavhar, xafa bo‘lma, suratni o‘g‘limga (o‘g‘illari Turkiyada ishlardi) berib keldim. Surishtirib javobini aytadi”, dedi. Shu tariqa Yoqub dodaning oilasi topildi. Ayollari Fahomatxonim va Oltoy bilan telefon orqali bog‘landik. Oltoy O‘zbekistonga keldi. Qarindosh-urug‘lar bilan tanishdi, suratlarga tushdik. Meni “opam, opam”, deb esi ketdi. “Turkiyaga borsam, O‘zbekistonda qarindoshlarim bor, meni xafa qildirib qo‘ymaydi, deyman”, deb hazillashardi.

Oltoy Turkiyaga qaytgach, onam va akam viza bilan bu mamlakatda bo‘lishdi. Afsuski, o‘sha payti Jamshid akam va mening imkoniyatim bo‘lmagani uchun bora olmadik. Onam yurtimizdagi onasining mozoridan tuproq olib ketgandi. Shu tuproqni otasining Turkiyadagi mozoriga, u yoqdan olib kelgan tuproqni esa onasining mozoriga sepib, “ruh tinchitar” qildi. Eng muhimi, otasi Turkiyada obro‘li inson, taniqli olim bo‘lganini bilib qaytdi. Shundan so‘ng Oltoy o‘g‘illi bo‘ldi, onamning sharafiga go‘dakning ismini Turg‘un qo‘yishdi.

AVLONIY VA FARZANDLAR

Abdulla Avloniyni 1934-yili tish oldirganida qon zaharlanishidan vafot etgan, deyishadi. Buxorolik Dilnoza ismli olima ayol “Avloniy atay zaharlangan” degan taxminni aytgan. Buvamning o‘z qo‘li bilan yozilgan tarjimayi holida “Men jadidlar safiga kirdim”, degan gap bor. Shu sababli bu taxmin to‘g‘ri bo‘lishi mumkin. Eng qizig‘i, Abdulla Avloniyning o‘limidan yarim yil o‘tgach, oilaga beriladigan, Salomat buvim oladigan nafaqa to‘xtatib qo‘yilgan. Karima qizlarini ham ishdan bo‘shatib, keyin boshqa joyga ishga qabul qilishmagan. Yaxshiyamki, buvimning ikkita sigiri bo‘lgan. Shu sigirlar buvimning qizlari, uning farzandlari va onamning ikki bolasini boqqan.

Muhimi shundaki, Abdulla Avloniyning asarlari “yoqish-yoqish”lardan omon qolgan. Hamma asarlari, hatto konferensiyada qatnashish uchun berilgan bir parcha qog‘ozcha ham saqlanib qolgan. Buvim yoz paytlari chordoqdagi hamma asarlarni hovlida yoyib, changlarini artib-surtib, yana joy-joyiga taxlab qo‘yardi. Bu asarlar Avloniy vafotidan 34 yil o‘tib birinchi marta chop etildi. Birinchi kitob chiqqanida buvim hali hayot edi. Salomat buvim onamga: “Bolam, dadang vaqtida o‘lib ketdi. Bo‘lmasa, bizning hozirgi ahvolimiz qanday bo‘lishi yolg‘iz Xudoga ayon edi”, degan ekan. Bu gaplarning aytilishiga jiddiy asoslar bor edi, albatta. Ha, jadidlarga oson bo‘lmagan. Lekin ular hamma joyda “Jamiyati xayriya” ochib, bor-budini xalq uchun sarflagan. Abdulla Avloniy ham 1917-yili “Turon” gazetasini ochadi va muharrirlik qiladi. Gazetaning bir sonida Mirmuhsin Shermuhammedovning “Ikki tarixiy voqea” nomli maqolasi bosiladi. Shu maqola sabab ko‘pchilik Avloniyning uyiga bostirib keladi. “Sen kofirsan, o‘lsang, janozangni o‘qimaymiz”, deb tahdid qilishadi. Oxiri, “gazeta bosmayman”, deb so‘z berishga majbur bo‘ladi.

Avloniyning eng ibratli fazilati – ahli ayoliga, oilasiga, vataniga, xalqiga, ishiga fidoyiligi. Buvimning aytishicha, u kishi haqiqiy oilaparvar ota bo‘lgan. Buvim nevarali bo‘lgani bilan, qizi bilan nevarasi bir-biridan bor-yo‘g‘i bir yoshga farq qilgan. Avloniy bir kuni qiziga bitta ko‘ylak olib keladi va nevarasi ham borligini ko‘rib, ayoliga “Ko‘ylakni sandiqqa solib qo‘y. Yana bitta topib kelib, keyin kiydiraman”, deydi. Bir yildan keyin xuddi shunday ko‘ylak keltirib, qizi va nevarasiga baravar kiydiradi. Farzandlariga rostmana mehr berganining yana bir isboti: Kenja akamga varrak yasab berib, birga uchirarkan. Hovliga o‘zi gul ekib, ayoliga gul parvarishida yordam berar ekan. Qizlari Karima xolamning yozganlaridan bir voqea yodimda qolgan. Bir kuni Salomat buvim mehmondaligida gul ekayotib, birdan bobomning beli qirsillab ketadi va qimirlolmay qoladi. Karima xolamga: “Qo‘rqma, choyxonaga bor-da, tabibni topib kel”, deydi. Buvim uyga kelgach: “Ko‘rdingizmi, agar siz uyda bo‘lganingizda, belim chiqib ketmasdi”, deb hazillashadi. Abdulla Avloniyning diydasi qattiq bo‘lmagan. Birovning dilini og‘ritish, qattiq gapirish u kishining fe’liga yot edi. Nihoyatda bolajon bo‘lib, farzandlariga ertaklar aytib berarkan.

Balki, ko‘pchilikning xabari bordir, lekin yana bir bor ta’kidlab o‘tishni istardim, jadidlarning deyarli hammasi o‘ziga to‘q odamlar bo‘lishgan. Lekin borini xalq uchun sarflashgan. Ular maktablarni o‘z hisoblaridan ochib, yoshlarga diniy va dunyoviy ilmlardan bepul ta’lim berishgan. O‘quv darsliklarini ham jadidlarning o‘zlari yozgan. Masalan, Avloniy doskani ham, partani ham o‘z qo‘li bilan yasagan ekan. Jadidlar hamma farzandlarini ilmli qilishgan. Abdulla Avloniyning eng kichik o‘g‘li Kenja akam va ayoli Ra’no opam ham kimyogar olim bo‘lishgan. Ularning Jamshid ismli o‘g‘li yetuk olim bo‘lib, o‘tgan asrning 90-yillardan boshlab 20 yil Amerikada yashadi. U kishi Ra’no opam keksayib qolgach, onasi uchun Sijjakda uy qurib, Amerikaga qaytmadi va yetti yil Ra’no ayaga qaradi. Hozir ham o‘zbekistonlik talabalarga dars berib, amerikaliklar bilan hamkorlikda ilmiy izlanishlar olib boryapti.

MEN BAXTLI AYOLMAN

Men shunday baxtli ayolmanki, Abdulla Avloniy qalamiga mansub hamma asarlarni, u kishi haqidagi barcha tafsilotlarni o‘qiganman. Hozirgacha jadidlar haqida qanday yangilik bo‘lsa, o‘qib boraman. Avloniyning she’rlarini ham sevib mutolaa qilaman. Shunday bebaho, ham zohiran, ham botinan jadid bo‘lgan insonning avlodi ekanimdan faxrlanaman. Bobomizning el-yurt uchun qilgan xizmatlari behisob. Ammo ularning eng muhimi, o‘sha davr uchun nihoyatda zarur bo‘lgan maktab, gazeta, teatrni tashkil qilish va rivojlantirish yo‘lidagi sa’y-harakatlari deb o‘ylayman. Chunki jadidlar yashagan davrda Turkiston bolalarini ilmli qilish eng asosiy masala edi. Birgina “O‘qimagan bolaning ahvoli yoki Padarkush” asari o‘z davrida odamlarga chaqmoq urgandek ta’sir qilgani aniq. Shu o‘rinda o‘zlarining “Biz zohirda teatr bilan shug‘ullangan bo‘lsak ham, botinda ishlarimiz Turkiston yoshlarini inqilobga hozirlov edi”, degan so‘zlarini eslash o‘rinli. Jadidlarning barchasi, jumladan, Abdulla Avloniy ham qilayotgan ishlarini, buning uchun jazoga duchor bo‘lishini yaxshi bilardi. Bobomiz ko‘pincha maxsilarini yechmasdan uxlarkan. “Nega bunday qilasiz?” deb so‘rashsa, “Mabodo kechasi kelib olib ketishsa, tayyor turish uchun”, der ekan. Bobomiz Afg‘oniston safaridan qaytgach, faqat o‘qituvchilik qilish va kitob yozish bilan shug‘ullangan. Ha, Abdulla Avloniyning, umuman, jadidlar merosi biz uchun, bugungi avlod uchun so‘z bilan ta’riflab bo‘lmaydigan, ko‘zimizga surtib foydalanadigan beqiyos xazina. Hali ulardan o‘rganadiganlarimiz ko‘p. Shaxsan o‘zim izlanishda davom etyapman.

Gulchehra UMAROVA
yozib oldi.



Suratda: Abdulla Avloniyning ayoli Salomat buvi nevaralari bilan.

XOTIRA AZIZ

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

Akbarov Asror – 1901-yili tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi. 1932-yili aksilinqilobiy faoliyati uchun qamoqqa olingan. Hibsga olingan paytda aniq mashg‘uloti bo‘lmagan. Aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda, xorijdagi hayotni maqtaganlikda, hokimiyat tadbirlari haqida ig‘vo tarqatganlikda ayblanib, 10 yil muddatga mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 5-noyabrdan hisoblangan.

Rasulov Obid – 1900-yili Andijon shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi. 1932 va 1933-yillarda aksilinqilobiy faoliyati uchun qamoqqa olingan. Sovet hokimiyatiga qarshi aksilinqilobiy, millatchilik targ‘iboti olib borganlikda, mehnatkashlar ahvoli haqida bo‘hton tarqatganlikda ayblanib, 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan.

QATAG‘ON QURBONLARI

Isayev Safoxon – 1905-yili Andijon shahrida tug‘ilgan. 1921-yili bosmachilar to‘dasiga qo‘shilib, talonchilik bilan shug‘ullangan. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi. 1921-yili aksilinqilobiy faoliyati uchun qamoqqa olingan. Milliy guruhlarni uyushtirishda, kolxoz qurilishiga doir tadbirlariga qarshi targ‘ibot olib borganlikda ayblanib, 10 yilga mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 16-noyabrdan boshlangan.

Shokirov Rizohoji – 1897-yili Andijon shahrida tug‘ilgan. Bosmachilarni qurol va o‘q-dori bilan ta’minlab turgan. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi. Qamoqqa olingan paytda aniq mashg‘uloti bo‘lmagan. Aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda ayblanib, 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 5-noyabrdan hisoblangan.

G‘afurov Mahmudxon – 1899-yili Andijon shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi. Hibsga olingan paytda mahalla kotibi vazifasida ishlagan. Aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda, xorijiy mamlakatlardagi hayotni maqtaganlikda, millatchilar yig‘inlarida ishtirok etganlikda ayblanib, 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 16-noyabrdan hisoblangan.

Yusupov Olimjon – 1895-yili Andijon shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi. 1932-yili qamoqqa olingan paytda istirohat bog‘ida xizmatda bo‘lgan. Sovet hokimiyatining tadbirlariga qarshi targ‘ibot olib borgani uchun ayblanib, 10 yil muddatga mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 20-noyabrdan hisoblangan.

Muhammadjonov Abdullajon – 1899-yili Andijon shahrida tug‘ilgan, “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi. Qamoqqa olingan paytda aniq mashg‘uloti bo‘lmagan. Sovet hokimiyati tadbirlariga qarshi aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda ayblanib, 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 17-noyabrdan hisoblangan.

Sotiboldiyev Mulla Abdug‘ofur – 1898-yili Andijonda tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi. 1928-yili paxta bo‘yicha zararkunandaligi uchun qamalgan. Sovet hokimiyatiga qarshi aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda, xalq dushmanlarining fosh etilishiga qarshi bo‘lganlikda ayblanib, 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 26-noyabrdan hisoblangan.

Rahimov Ahmad – 1904-yili Andijon shahrida tug‘ilgan. Bosmachilik kurashining faol ishtirokchisi. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi. Sovet hokimiyatiga qarshi aksilinqilobiy, millatchilik targ‘iboti olib borganlikda ayblanib, 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 27-oktyabrdan hisoblangan.

Aglayev Yahyo – 1911-yili Buxoro shahrida tug‘ilgan. Farg‘onada nolegal aksilinqilobiy gazeta chiqarishda faol qatnashgan. Qamoqqa olingan “Milliy ittihod” a’zolari bilan aloqada bo‘lgan. Hibsga olingan vaqtda davlat bankida ishlab turgan. Sovet hukumatiga qarshi targ‘ibot olib borganlikda ayblanib, xalq dushmanlariga nisbatan achinish kayfiyatida bo‘lgani uchun 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 6-noyabrdan hisoblangan.

Avliyozoda Mahmud – 1900-yili Andijonda tug‘ilgan. Bosmachilik harakatida faol ishtirok etgan. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi. 1933-yili aksilinqilobiy faoliyati uchun qamoqqa olingan. Hibsga olingan paytda ishsiz bo‘lgan. Aksilinqilobiy tashkilotning yuzaga kelishida tashabbuskorlardan biri. Uyida millatparvarlar yig‘ilishlarini uyushtirishda, paxta urug‘ini ekish kampaniyasini barbod qilishda ayblanib, 10 yil muddatga mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 20-noyabrdan hisoblangan.

Sotiboldiyev Abdulaziz – 1900-yili Andijon shahrida tug‘ilgan. 1931-yili quloqqa tortilgan, bosmachilik harakatining faollaridan. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi. Milliy harakat tashkilotchilari Hasanxon Niyoziy va Cho‘lpon bilan yaqin aloqada bo‘lgan. Ipak kooperatsiyasida ishlab, ishni barbod qilish bilan shug‘ullanganlikda ayblanib, 10 yilga mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 26-noyabrdan hisoblangan.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor,
Nigoraxon AKBAROVA,
ilmiy xodim

(Davomi kelgusi sonda).

TARMOQLARDA NIMA GAP?

Bozorlar nega huvullab qoldi?

Bu haqda yozsam, batafsil to‘xtalishga to‘g‘ri keladi. Biroq men o‘zim guvohi bo‘lgan holatlarnigina yozmoqchiman.

GURUCH BOZORIDA:

Chet eldan vagonlab guruch olib kelishadi, ko‘rinishi “Lazer” naviga juda o‘xshab ketsa-da, ta’mi bemaza. Asosiy xaridori Xorazm guruchi bilan ulgurji savdo qiluvchilar. Ular toza navli “Lazer”ga soxtasini aralashtirib, asl nav deya iddao qilib, arzonroqqa pullashadi. Bu mening bilganim, bilmaganim qancha.

ZIRAVOR BOZORIDA:

Toza ziraga sabzi urug‘i aralashtirib sotishadi. Sabzi urug‘i ko‘rinishidan ziraga o‘xshaydi, narxi esa “kapeyka” turadi.

Maydalangan bir kilo toza zanjabilga kamida besh kilo makkajo‘xori unidan aralashtirib sotishadi. Zanjabil falon so‘m, makkajo‘xori uni esa o‘ta arzon.

Asl sirkaga oddiy uksus qo‘shib, hidini o‘tkir qilishadi va 10-15 yil saqlangan, deya aldashadi. Aslida, tayyorlanganiga bir yil ham bo‘lmagan.

CHORVA BOZORIDA:

Mol va qo‘ylarni semirtirishda garmondorilardan foydalanadiganlar borligi sir bo‘lmay qolgan. Bundan tashqari, molni sotuvga olib chiqishdan avval ko‘p miqdorda tuz qo‘shilgan yem berishadi va sho‘r yemdan chanqagan mol 30 litrgacha (balki, undan ortiqroq) suv ichadi. Taroziga qo‘yilganda kamida 20-30 kilogacha og‘irroq tosh bosadi. Qarabsizki, xaridor kamida 800-900 ming so‘m pulni suv uchun to‘laydi.

Oluvchini avrash uchun soxta xaridor bo‘lib narxni sun’iy oshiruvchilar va boshqa firibgarliklarni sanab adog‘iga yetib bo‘lmaydi.

“ZAPCHAST” BOZORIDA:

Eng xaridorgir “zapchast”larni Xitoyga buyurtma berib, ko‘rinishini aslday qilib tayyorlatib olib kelib, “original zavod” deb sotishadi. Albatta, hamma savdogarlar ham bunday emas.

MOSHINA BOZORIDA:

Bu yerdagi qallobliklarni aytmasak ham ko‘pchilikka ayon. Birgina misolni aytib o‘taman. Sotiladigan moshinaning yangi akkumulyatori o‘rniga “uygacha yetib oladigan”ini qo‘yib, chirigan o‘rindiq ustiga yangi qoplama kiydirib, “Moshina svejiy, qarab qo‘yilgan”, deb xaridorlarni chuv tushirishadi.

KIYIM DO‘KONLARIDA:

O‘zimizda tikilgan kiyimlarga xorij firmasi yorliqlarini yopishtirib, “original, chet elniki” deya xaridorlarni “kiydirishadi”.

Eng achinarlisi, rahmimni keltiradigani, do‘konlarga yoki ulgurji sotuvchilarga mol yetkazib berayotgan savdogarlardir.

Masalan, chet eldan mol olib kelib yoki o‘zimizda ishlab chiqarib “optom”chilarga o‘n ming dollarlab nasiyaga berishadi. “Optom”chi esa molning to‘rtdan biriga haq berib, tag‘in o‘n minglik tovarni nasiyaga olib ketadi. Mol egasi “optom”chidan avvalgilari uchun qat’iy hisobot talab qilsa, u hisobot berolmasligi tayin. Chunki sotilgan mollarning asosiy qismiga yo moshina olgan, yo “uchastka” qurgan. Mol beruvchi “optom”chiga ipsiz bog‘lanib qoladi. Chunki endi “optom”chining puli ham yo‘q, ombori ham bo‘sh. Yagona chora, ulgurji savdogar bilan murosa qilib, uzluksiz mol berib turish bo‘ladi, xolos. Aks holda “optom”chi zarda qilib, mol egasi pulini umuman ololmasligi mumkin.

QANDOLAT BOZORIDA:

O‘zimizning ishlab chiqaruvchilar qandlarini taniqli firmalar nomi yozilgan qog‘ozlarga o‘rab, xaridorga “Bu eng tozasi, haqiqiy mahsulot”, deya aldab sotishadi.

Yana “yorliq” va qandqog‘oz yasovchilar “Lyuboy fabrika yo zavodnikini o‘ziday qilib yasab beramiz, poshshosiyam ajratolmaydi”, deb maqtanib ham qo‘yishadi.

Eh-he, gapirsa, gap ko‘p. Yana “Nega baraka yo‘q, nega bozorlar bo‘shab qoldi?” deya sabablarni boshqa yoqdan qidiramiz.

Tag‘inam bizni yer ko‘tarib turibdi. Keyinroq “Nega kasal ko‘p, nega dorilarning ta’siri yo‘q?” degan savollarga to‘xtalamiz.

Yuqorida yozganlarim barcha bozorchilarga tegishli emas, albatta. Yurtimizda halol, rostgo‘y savdogarlar ko‘p, ammo “Birniki mingga, mingniki tumanga uradi” degan xalq naqlida ham haqiqat bor ekanini hayot ko‘rsatib turibdi. Salomat bo‘linglar.

Muhammad IKROM
sahifasidan olindi.



Husan Sodiqov chizgan surat.

HAJV

O‘KSUK KO‘NGIL

ZAGS[1] xodimlari manim baxtimni qora yozdilar,
Yozibon, boz ustig‘a tuflab pechotin bostilar.

Hur degan, paykar degan ta’riflara tamshanmisham,
Hol budur, makrin yo‘lida dam olar alvastilar.

Itlanib oyga boqib solg‘on uvilloq dodima
Necha Majnun chok yaqo aylab, aqldan ozdilar.

Ko‘zyoshim daryo bo‘lib gulladi ribxo‘z[2] necha,
Markaziy Farg‘onada majbur kanallar qozdilar.

Aliment qistab nafas oldirmas tun-kun Ali ment,
Vovaylo, majburiy ijro hammomda tappa bostilar.

Oyning o‘n beshi yorug‘ deb o‘n besh sutkada yozmisham,
Kambar[3]dan bir otim tashla, o‘ksuk ko‘ngilki nos tilar.

Mulla XUNOB

[1]*Burung‘i zamonlarda qonuniy nikoh mahkamasi*
[2]*Baliqchilik xo‘jaligi*
[3]*Ko‘rganlarga ayon, chillaxona darchasi*

YANGI LUG‘AT

Atamalar sharhi

ADMIN – ijtimoiy tarmoq sahifalaridagi o‘zan va guruhlarni boshqaradigan, nazorat qiladigan, tartibni saqlaydigan, veb-sayt va boshqa turdagi tarmoq foydalanuvchilari huquqlarini belgilovchi mas’ul.

BITKOIN – raqamli shakldagina mavjud bo‘lgan valyuta turi. Undan faqat onlayn to‘lov va sarmoya kiritish singari jarayonlarda foydalanish mumkin. Uni hech qanday mas’ul idora yoki bank nazorat qilmaydi.

BLOKCHEYN – barcha uchun ochiq va o‘zgarmas bo‘lgan ma’lumotlar bazasi. Boshqa ma’lumot bazalaridan farqi – uni bir kishi boshqarmaydi. Uning yordamida turli operatsiyalarni amalga oshirish mumkin. Texnologiya juda keng doiradagi ilovalarga xizmat ko‘rsatish imkoniga ega.

LAYFHAK – turli hayotiy vazifalarni bajarishni osonlashtirishga mo‘ljallangan qo‘llanma. Kuchni, vaqtni va mablag‘ni tejashga qaratilgan maslahatlar majmui.

Gazetxonlarimizda mazkur so‘zlarning o‘zbekcha muqobiliga taklif bo‘lsa, telegram orqali @jadidgamurojaat_bot manziliga yuborishlarini so‘raymiz.



TILBILIM

TOG‘A



Bilasizmi, o‘zbek tilida qarindoshlikni bildiruvchi so‘zlarning ko‘pligi so‘zlovchi uchun ancha qulaylik tug‘diradi. Deylik, birgina “tog‘a” deyish bilan gap onaning aka-ukasi yo ona tomondan erkak qarindosh haqida ekanligi anglashiladi. Ota qarindoshlarni esa “amaki” deymiz. Ingliz, fransuz, rus va hokazo tillarda bu qulaylik yo‘q, ya’ni ularda “tog‘a” va “amaki” bir so‘z bilan ifodalanadi (ingliz: “uncle”; fransuz: “oncle”; rus: “dyadya”).

Manbalarga tayanib aytish mumkinki, ilgari turkiy tillarda bunday so‘zlar yana ham ko‘proq bo‘lgan. Lekin, afsuski, ularning aksari boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar evaziga unutilgan. Deylik, “amaki” ham yarim arabiy, yarim forsiy so‘z (’am+ak+i), bugun biz ota qarindoshlarni: “amaki aka”, “amaki uka”, “amaki buva”... deymiz. – Ammo “amaki” hali ham shevalarga butunlay singib ulgurmagan, aytaylik, hozir ham shevalarda otaning aka-ukasi yoki amakilarga “aka” deb murojaat etiladi.

Xo‘sh, “amaki” tilimizga o‘zlashmasdan oldin shu ma’nodagi boshqa bir turkiy so‘z bo‘lganmi?

Ha, bo‘lgan. Qadimgi turkiyda “ab”, “aba” so‘zlari – “ota”, “bobo” ma’nolarini bildirgan. Aytaylik, tug‘ishgan aka, ukaga nisbatan “aka”, “uka”, “og‘a”, “ini” deyilsa, ba’zi turkiy lahjalarda ularning oldiga “ab” so‘zini qo‘shib: “abag‘a” (ab og‘a), “abaka” (ab aka), “avaqa” kabi so‘zlar yasalgan. Ya’ni bu so‘zlar aynan otaning aka-ukalari, ota tomondan erkak qarindoshlarga nisbatan ishlatilib, bugungi “amaki” ma’nosini bildirgan.

Ona qarindoshlarni atash uchun esa maxsus “tay” old qo‘shimchasidan foydalanilgan. Deylik, “tay og‘a” – tog‘a, “tay ota” – ona tomondan bobo, “tay ona” – ona tomondan buvi, “tay äjä” – “onaning opasi yo singlisi, xola” va hokazo. Qirg‘iz tilida hozir ham “xola, ya’ni onaning opasi yo singlisi” ma’nosidagi “tayeje” so‘zi saqlangan. “O‘zbek xalq shevalari” kitobida keltirilishicha, Namangan hududida yaqin yillargacha ham “ona qarindosh” ma’nosida “tay” so‘zi va shu so‘z ishtirokidagi “tay ɔtə”, “tay ɔnə” kabi so‘zlar qo‘llanilgan (O‘XSHL.T.1971.355-bet). “Этимологический словарь тюркских языков” lug‘atida turli turkiy tillardagi: “tayaba” (xakas: “ona tomondan bobo”), tayne (oltoy: “tay ona”), “dayka” (gagauz: “day aka”), “täinäk” (shor: “ona tomondan buvi”) kabi so‘zlar keltiriladi (ESTYA.III.128).

Mutaxassislarga ko‘ra, qadimgi turkiy yoki prototurk tilida “tay” (“day”) so‘zi – “ona” ma’nosini anglatgan bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, “tog‘a” ham “tay” va “og‘a” so‘zlarini qo‘shish yo‘li bilan yasalgan, deb qaraladi. “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati” muallifi Shavkat Rahmatullayev bu evrilishni shunday ko‘rsatadi: tay + ag‘a = tayag‘a > ta:g‘a > tâg‘ä (O‘TEL.I.352).

“Devonu lug‘otit-turk”da bu so‘z: “tag‘ay” shaklida keltiriladi. (Ammo “Devon”ning o‘zbekcha nashrida uning “amaki” deb izohlanishi, bizningcha, to‘g‘ri emas. Basim Atalayning turkcha nashrida esa – “dayi”, ya’ni “tog‘a” deb to‘g‘ri o‘girilgan (DLT.III.256; DLT.III.238).

“Devon”da “tag‘ay” shaklining keltirilishi uning birlamchi ko‘rinishi “tag‘ay” bo‘lganmi yoki “tay”mi? – degan savol tug‘diradi. Agar olmon turkshunosi Gerhard Dorfer mulohazalariga tayanilsa, “tag‘ay” birlamchi bo‘lishi ham mumkin (tag‘ay > ta:ay > tay).

Biz “tag‘ay” shaklini turkshunoslikka oid yana bir muhim manbada uchratdik. Bu manba XIII-XIV asrlarda yevropalik missionerlar tomonidan kumonlar, ya’ni Qrim yarimorolida yashagan turkiy xalqlar, asosan qipchoqlar o‘rtasida nasroniylikni joriy etish maqsadida tuzilgan lug‘at – “Kodeks kumanikus”dir. Unda mushohada etilayotgan ikki so‘z: “abag‘a” hamda “tag‘ay” so‘zlari uchraydi. “Kodeks”da “abag‘a” – “abaga” shaklida keltirilgan va lotinchada “auunculuc”, ya’ni: “amaki” deb, “tag‘ay” (“tagay”) esa – “consanguineus”, ya’ni “qondosh” deb izohlangan. Bu ikki so‘zning mazkur lug‘atda keltirilishi XII-XIII asrlarda “abag‘a” va “tag‘ay” qipchoq turkchasida faol bo‘lgani va keng tarqalganini ko‘rsatadi.

Shu o‘rinda yana bir muhim manba xususida to‘xtalib o‘tish joiz. Ma’lumki, XIII asrdan Misrda kelib chiqishi qipchoq turklaridan bo‘lgan mamluklar hukmronligi boshlanadi va qariyb so‘nggi asrlargacha davom etadi.

O‘sha davrda turk tilini arablarga o‘rgatish yoki turk tilli hukmdorlarning arab yerlaridagi hukmronligi uchun qulaylik yaratish maqsadida bir necha turkcha-arabcha lug‘atlar yaratilgan. Shunday lug‘atlardan biri XIV asrda Jamoliddin at-Turkiy tomonidan bitilgan “Kitabu bulg‘atul-mushtaq fiy lug‘atit-turki val-qifchaq” (“Turk va qipchoq tillarini o‘rganishni istovchilar uchun yetarli darajada bo‘lgan qo‘llanma”) asaridir. Mazkur lug‘atda ham “tay” va “tay yeze” so‘zlari keltirilgan va “tay” – “ona tomondan qarindosh” deb, “tay yeze” (tayeje) – “xola” deb izohlangan.

“Tay”, “tag‘ay” so‘zlari faqat qipchoq va qarluq lahjalari emas, balki o‘g‘uz turkchasida ham keng tarqalgan. Faqat u o‘g‘uzlarda, jumladan, Xorazm shevasida ham, “tay” emas, “day”, ya’ni “d”lashgan shaklda, “tog‘a” esa – “da:yi” deb talaffuz etiladi. Ma’lumki, qorluq va qipchoq shevalaridagi “t” tovushi o‘g‘uz shevalarida ko‘pincha “d”ga aylanib, “g‘” tovushi ba’zan talaffuz qilinmaydi. Shu qoidaga ko‘ra, “dayi” so‘zining kelib chiqishini mutaxassislar shunday tushuntiradi: dastlab “tag‘ay” so‘ziga uchinchi shaxs egalik qo‘shimcha “i” qo‘shilib “tag‘ayi” (“tog‘asi”) hosil bo‘lgan, o‘g‘uz shevalarida “t” tovushi “d”lashib, “g‘”ning tushib qolishi natijasida “da:yi” shakliga kelgan. “Этимологический словар тюркских языков” lug‘atida “day” o‘zagidan yasalgan qator so‘zlar keltiriladi: “da:ыы” – “tog‘a”, “dayka” (day+aka) – “tog‘a”, “dayza” (day+eja) – “xola”, shuningdek, diyaza, diyeze, deyze, dēze – bularning hammasi “xola” ma’nosida (ESTYA.III.127).

O‘g‘uzcha “dayi” keyinchalik fors tiliga ham “doyi” shaklida o‘zlashgan va hozirgi kunda Eronda “doyi” deganda “tog‘a” tushuniladi.

Abduvohid HAYIT

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:
O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI
“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Bosh muharrirning birinchi o‘rinbosari:
Humoyun Akbarov

Navbatchi muharrir:
Muyassar Ibrohimova

Sahifalovchi:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Kirill yozuvidagi adadi – 6024
Lotin yozuvidagi adadi – 11916
Media kuzatuvchilar – 12248
Buyurtma: G – 640.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:45
Sotuvda narxi erkin.

jadid-media.uz